

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

UDK

MAGISTRATURA BO'LIMI

“Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va tarbiyaviy ishlar
metodikasi” kafedrasida

YUSUPOVA MUNIRA IRISKULOVNA

**“Boshlang'ich sinf o`quvchilariga imon –e'tiqod tarbiyasini
berishda Sharq mutafakkirlarining asarlaridan foydalanish”
(A.N.Farobiy va A.Navoiy asarlari vositasida)
mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi**

DAKda himoya qilishga ruxsat
berilgan
Magistratura bo'limi boshlig'i
_____ p.f.n., N.A.Xamidova
Kafedra
mudiri _____
p.f.d.,prof.R.A.Mavlonova
_____ 2011 yil

Ilmiy rahbar

p.f.d.,prof.
R.A.Mavlonova

_____ 2011 yil

Toshkent 2011
MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIGA IMON – E'TIQOD TARBIYASINI BERISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	
1.1. Imon-e'tiqod tushunchasi va uning ilmiy-nazariy asoslari.....	11
1.2. Milliy qadriyatlarimiz (Qur'oni Karim va Hadis namunalari)da imon-e'tiqod tarbiyasi masalasining targ`ib qilinishi.....	18
Birinchi bob bo`yicha xulosa.....	31
II BOB. KICHIK YOSHDAGI MAKTAB O`QUVCHILARIGA IMON–E'TIQOD TARBIYASINI BERISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARI – TARBIYA VOSITASI SIFATIDA	
2.1. Abu Nasr Farobiy asarlarida bolalarni imon-e'tiqodli qilib tarbiyalash masalalarining targ`ib qilinishi.....	33
2.2. Alisher Navoiy asarlari yosh avlod tarbiyasining asosiy vositasi sifatida.....	49
Ikkinchi bob bo`yicha xulosa.....	59
III BOB. BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIDA IMON-E'TIQOD TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI VA UNING SAMARADORLIK DARAJASI	
3.1. Boshlang`ich sinf o`quvchilarida imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirishda oila va maktab hamkorligi hamda uni amalga oshirishning shakl, usullari.....	60
3.2. Boshlang`ich sinf o`quvchilarida imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanish bo`yicha oilada va maktabda olib borilgan tajriba-sinov ishlari hamda ularning natijalari	66
Uchinchi bob bo`yicha xulosa.....	71
UMUMIY XULOSA.....	73
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	75

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi - Milliy mustaqillik sharoitida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar tabiiy ravishda va qonuniy tarzda xalqning milliy o'z-o'zini anglashini kuchaytirdi. O'z o'rnida milliy ongning o'sishi esa millatning ravnaqiga yo'l ochdi. Natijada, bu tarixiy jarayonlar oilada bolalar tarbiyasida ham o'z aksini topa boshladi. Buning uchun ota-onalarning o'zida milliy qadriyatlarga nisbatan munosabat o'zgarmog'i lozim. Ular bolalarni pand- nasihatlari, o'g'itlari va tajribalari asosida eng yaxshi va olijanob an'analar ruhida tarbiyalab kelganlar. Ularning dono fikrlari, turmush saboqlari davrlar g'alvirlaridan o'tib, saralanib bizgacha yetib kelgan.

Milliy mustaqillikka erishish tub o'zgarish sifatida oilada kichik maktab yoshdagi bolalarni imonli-e'tiqodli, ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish borasida ham jiddiy o'zgarishlar qilishni taqozo etmoqda. Shu boisdan ham Prezidentimiz I.A.Karimov "..... mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustivor maqsadimiz", degan fikr mulohazalaridan jamiyatimizda barkamol avlodni tarbiyalash boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri ekanligi gavdalanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim va tarbiyaning tub maqsadi kuchli fuqarolik jamiyatining barpo etilishiga xizmat qilishi asosiy maqsadimiz ekanligi Sharqona tarbiya mazmunida his etilishi zaruriyati mavjuddir." Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan bu tarixiy voqea oilaviy tarbiyaning mazmunida ayniqsa, bolalar ongiga imon-e'tiqod tushunchalarini singdirishda va bolalarga ta'sir etish vositalarida ko'zga tashlanmoqda.

Milliy va diniy qadriyatlarni tiklanayotganligi, ularga nisbatan kishilar munosabatini o'zgarayotganligi, eng muhimi, ma'naviyatni rivojlantirish borasidagi davlat siyosatining izchil va qat'iyat bilan olib

borilayotganligi oilaviy tarbiyaning mazkur muammosining ijobiy hal etish uchun qulay imkoniyat ochib bermoqda.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy meroslarida ta'lim-tarbiya masalalari muhim o`rinni egallaydi. Ayniqsa, ular oila va oilada farzand tarbiyasiga katta e'tibor berganlar. Zero, yosh avlod tarbiyasi insoniyatning kelajak taqdirini belgilaydigan, ularni ijobiy mezon bilan qurollantiradigan sifatlar bo`lganligi uchun ham mutafakkirlar bu muammoni hal qilishga harakat qilib kelganlar. Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, M.Qoshg`ariy, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma'naviy-axloqiy, imon-e'tiqodli va vatanparvar qilib tarbiyalash masalalari o`rtaga qo`yilgan va ularni hal etish yo`llari ko`rsatib berilgan.

Sharq mutafakkirlari qomusiy asarlarida va maxsus odob-axloqqa bag`ishlangan risolalarida o`zlarining pedagogik qarashlarini ifodalaganlar va ular pedagogik hamda falsafiy- didaktik xarakterga egadirlar. Bular jumlasiga Yu.X.Xojibning «Qutadg`u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq», Kaykovusning «Qobusnoma», Alisher Navoiyning «Hayratul – abror» va «Mahbub-ul-qulub», «Siyosatnoma» kabi pandnoma, nasihatnoma tarzida yozilgan asarlar kiradi.

Shuningdek, o`tmishda diniy-tasavvufiy asarlar ham yozildiki, ularda bolalarni imon-e'tiqodli, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari ilgari surilgan bo`lib, ular ma'naviyatimiz tarixida munosib o`rinni egallaganlar. Imom al-Buxoriy, imom at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Az-Zamaxshariy, Bahouddin Naqshband, Kubro va boshqalar shular jumlasidandir.

Mutafakkirlarimizning ilmiy merosini, xususan pedagogik merosini o`rganishda o`zbek olimlaridan M.Hayrulaev, A.qayumov, A.Irisov, E.To`raqulov, K .Munavvarov, A.Zunnunov va boshqalarning xizmati kattadir. Ana shu olimlarimiz mehnati tufayli Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi ancha chuqur tadqiq etildi. Jumladan, M.Xayrullaevning ilmiy

tadqiqot ishi bolalarni oilada xalqimizning milliy merosi asosida imon-e'tiqod ruhida tarbiyalashga qaratilgan bo'lsa, A.Irisov va K.Munavvarovlar maktab va oilalarda Qur'oni Karim va Hadis namunalari asosida yaratilgan rivoyat va hikoyalari asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslarini ochib berganlar. Ularning ko'plari mustaqillik talablari asosida yozilgan bo'lib, tarbiyaviy jarayonning biz uchun hanuzgacha yoritilmagan tomonlariga alohida e'tibor beriladi.

Ma'lumki, yosh avlodni ma'naviy qiyofasi ijtimoiy borliqdagi ko'plab hodisalar bilan aloqadordir. Uning yanada murakkabligi shundaki, bu bog'liqlik har doim ham bir xil va tushunarli emas. Shunisi qiziqki, faqat xato va kamchiliklargina emas, balki ijtimoiy hayotdagi ijobiy siljishlar ham agar ular o'z vaqtida hisobga olinmasa, shaxs tarbiyasidek nozik ishda qator qiyinchiliklar va murakkabliklarni keltirib chiqarishi tabiiy.

Sharq mutafakkirlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan asarlarda bolalarni imon-e'tiqodli qilib tarbiyalash masalasiga, ularni hayotda hallollik, poklik, odamgarchilik kabi fazilatlar asosida tarbiyalash masalasi birinchi o'ringa qo'yilganligini guvohi bo'lamiz. Masalan, bobomiz Amir Temur o'zining ijtimoiy- siyosiy faoliyatida imon-e'tiqodga suyangan odam, xiyonat qilmaydi, qarindosh- urug'lari, eluk xalqining or-nomusini himoya qiladi, halollik va poklikni ajoyib fazilat, deb takror-takror uqtirganlar. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning hadisi shariflarida shunday deyiladi: mol-dunyosi ko'p badavlat emas, balki nafsi to'q inson badavlatdir, savdo-sotiqda xiylakorlik, bozorni kasod qilish maqsadida ataylab narx-navoni oshirmoq, aldanchilik qilmoq makruhdur.

Bolalarni yoshlikdan boshlab imon-e'tiqodli qilib tarbiyalash muammosi qadim-qadimdan ota-bobolarimizni farzand tarbiyalash borasidagi muammolaridan biri bo'lganligini va bu muammo hozirgi kunga qadar davom etib kelayotganligini e'tiborga olib, bitiruv ma'lakaviy

ishimizni “Boshlang`ich sinf o`quvchilariga imon- e`tiqod tarbiyasini berishda Sharq mutafakkirlarining asarlaridan foydalanish” deb nomladik.

Tadqiqot ishining ishlanganlik darajasi – Pedagogika nazariyasi va tarixi fani oldida yosh avlodni milliy qadriyatlar, xalq an`analari vositasida ma`naviy jihatdan yuksak insonlar qilib tarbiyalash muammosi har doim ham dolzarb muammolardan bo`lib qolmoqda. Biz tomonimizdan tadqiq etilayotgan magistrlik dissertatsiyasi mavzusiga yaqin bo`lgan mavzularda pedagog, psixolog, faylasuf, sotsiolog, filolog olimlarimiz tomonidan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari, nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari, monografiyalar, ilmiy maqolalar yozilgan. Jumladan, faylasuf olimlarimizdan akademik J.Tulenov, I.Rahimov, E.G`oziev, G`.Shoumarov, M.Mirhosilov, V.Karimova singari psixolog olimlarimiz, O.Musurmonova, M. In`omova, R.Mavlonova, A.Munavvarov kabi pedagog olimlarimiz tomonidan yosh avlod ta`lim- tarbiyasida milliy qadriyatlardan va o`zbek xalqining milliy merosi hisoblangan Qur`oni Karim va Hadis namunalaridan foydalanish muammosi bo`yicha bir necha tadqiqotlar yaratildi.

Yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ma`naviy-axloqiy tarbiyalash bugungi kundagi pedagogika fani oldida turgan dolzarb masalalardandir. Shu ma`noda O.Musurmonovanning tadqiqoti katta e`tiborga molik. Olima yuqori sinf o`quvchilari ma`naviy madaniyatini shakllantirish borasidagi qator pedagogik muammolarni yechishga harakat qildi. ”Bizning nazarimizda,- deb ta`kidlaydi O.Musurmonova, - shaxsning ichki ma`naviy dunyosi ma`naviy ehtiyoj, ma`naviy qiziqish, ma`naviy faoliyat va ma`naviy qadriyat kabi asosiy belgilar tizimidan iboratdir”.

Haqiqatan ham, tadqiqotchi qayd etgani kabi shaxsning ma`naviy-axloqiy qarashlari, tasavvurlari fan, adabiyot, san`at, maorif, din kabi vositalar orqali tarbiyalanadi.

Filosof olimlarimizdan biri bo`lgan I.Rahimov o`zining “Mustaqillik sharoitida milliy madaniyat va qadriyatlarning tiklanishi” nomli doktorlik

dissertatsiyasida, - “Xalqimizning madaniy-ma'naviy boyliklari va milliy qadriyatlarini to`la, odilona egallash va rivojlantirish va kelajak avlod uchun ularni yetkazib berish hozirgi avlodlarning vazifasidir. Gap o`tmish madaniy-ma'naviy boyliklariga ega bo`lishdagina emas, balki uni chuqur egallab, yangi bosqichga ko`tarib yosh avlod ongiga imon-e'tiqod tushunchalarini milliy qadriyatlarimizning asosi xisoblangan Qur'oni Karim va Hadis namunalari orqali yetkazishdan iborat”- degan fikrlarni ilgari surgan bo`lsa, pedagogika fanlari doktori, professor M.Inomova “ Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasida, - “Islomiy ma'naviyat deganda, biz muqaddas kitoblarda ifodalangan g`oyalarni va ana shu g`oyalar asosida yozilgan diniy allomalarimizning tariqatlari yig`indisini tushunamiz. Darvoqe, bu ma'naviyatning negizida inson muammosi yotadi. Inson muammosini hal etilishi uni tarbiyalash bilan bog`liqdir. Zero, ma'naviy- axloqiy tarbiyalangan inson g`oyasining yechimi, bu yorug` olam, undagi barcha ne'matlar odam uchun yaratilganligining anglash degan fikrlar bilan uyg`unlashib ketadi.

Muhammad payg`ambarimiz ta'kidlab o`tganlaridek, ibodatlarining eng afzali bir imonli kishining qalbiga xursandchilik solishdir. Bunday olijanob maqsad islomning asosiy g`oyasi bo`lib, undagi boshqa g`oyalarning hammasi shu g`oya atrofida uyg`unlashib ketadi,- degan fikrlarni bildirib o`tgan. Pedagogika fanlari doktori, professor R.Mavlonova tomonidan ilgari surilgan g`oya, ya'ni boshlang`ich sinf o`quvchilariga milliy urf-odatlarimiz, an'analalarimiz orqali imon –e'tiqod tarbiyasini singdirib borish olima tomonidan yozilgan “Pedagogika” darsligining “Tarbiya nazariyasi” bo`limida yaqqol yoritib berilgan.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlarning tahlili shuni ko`rsatadiki, hozirgi kungacha boshlang`ich sinf o`quvchilariga imon- e'tiqod tarbiyasini berishda Sharq mutafakkirlarining asarlaridan foydalanish bo`yicha ilmiy- tadqiqot ishlari, magistrlik dissertatsiyalari

yoʻzilmaganligining guvohi boʻldik va biz tadqiqot ishimizni “Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga imon- eʻtiqod tarbiyasini berishda Sharq mutafakkirlarining asarlaridan foydalanish” mavzusiga qaratdik.

Tadqiqot ishining maqsadi – kichik yoshdagi maktab oʻquvchilariga imon- eʻtiqod tarbiyasini berishda Sharq mutafakkirlari ijodining imkoniyatlarini aniqlash, undan foydalanishning shakl va usullarini asoslab berish hamda boshlangʻich sinf oʻqituvchilariga metodik tavsiyalar berish.

Tadqiqot ishining ob'ekti – Sharq mutafakkirlari ijodidan foydalanib kichik yoshdagi maktab oʻquvchilarida imon-eʻtiqod tarbiyasini shakllantirish jarayonini tashkil etish.

Tadqiqot ishining predmeti – taʼlim-tarbiya jarayonida Sharq mutafakkirlari ijodidan foydalanib kichik yoshdagi maktab oʻquvchilarini imon-eʻtiqod ruhida tarbiyalash.

Tadqiqot ishining vazifalari:

1. Muammoning nazariya va amaliyotdagi holatini oʻrganish asosida kichik yoshdagi maktab oʻquvchilarida imon-eʻtiqod tarbiyasini shakllantirishda – Sharq mutafakkirlari ijodidan foydalanishning dolzarb pedagogik muammo ekanligini asoslash.

2. Maktablarning boshlangʻich sinflarida kichik yoshdagi maktab oʻquvchilarida imon- eʻtiqod tarbiyasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanishga yoʻnaltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni, shakllari va metodlarini ishlab chiqish va ularni tajriba-sinovdan oʻtkazish.

3. Kichik yoshdagi bolalarda imon-eʻtiqod tarbiyasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash.

4. Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga imon-eʻtiqod tarbiyasini berishda Sharq mutafakkirlarining asarlaridan foydalanishga yoʻnaltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ishining ilmiy farazi. Agar:

– Bolalarda imon-e'tiqod tarbiyasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanishning mazmuni, shakli, usul va metodlari aniqlansa:

– Bolalarda imon-e'tiqod tarbiyasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanishga yo`naltirilgan texnologiya ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq etilsa, bolalar ma'naviyatining samaradorligini birmuncha oshirish mumkin.

Tadqiqot ishining ilmiy tadqiqot metodlari. Bolalarda imon-e'tiqod tarbiyasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanishga oid nazariy – metodik adabiyotlarni tahlil qilish, suhbat, anketa, tabiiy eksperimental kuzatish, aniqlovchi va shakllantiruvchi tajribalar.

Tadqiqot isining yangiligi:

1. Kichik yoshdagi maktab o`quvchilarida imon – e'tiqod tarbiyasini shakllantirishda A.N.Farobiy va A.Navoiy asarlaridan foydalanishning pedagogik shart – sharoitlarini aniqlash dolzarb pedagogik muammo ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

2. Bolalarda imon-e'tiqod tarbiyasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanishga yo`naltirilgan faoliyat mazmuni, shakli, uslubi ishlab chiqildi.

3. Bolalarda imon-e'tiqod tarbiyasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanishga yo`naltirilgan ilmiy – metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va ularning samaradorlik darajasi aniqlandi.

Tadqiqot ishining ilmiy va amaliy ahamiyati: “Pedagogika nazariyasi va tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanlari kichik yoshdagi bolalarda imon – e'tiqod tarbiyasini shakllantirishni sharq mutafakkirlari asarlari asosida tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni, shakli, uslublari; bolalarda imon-e'tiqod tarbiyasini shakllantirish

texnologiyasi va imon-e'tiqod tarbiyasiga yo'naltirilgan nazariy yondashuvlar hamda ilmiy – metodik tavsilarga ega bo'ldi.

Tadqiqot ishining metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta'lim-tarbiya sohasiga, milliy g'oya va milliy mafkuraga oid asarlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” va mavzuga oid ilmiy-pedagogik, metodik, tarixiy, falsafiy manbalar.

Tadqiqot ishining tuzilishi:

Kirish, 3 bob, 6 fasl, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I Bob. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga imon-e'tiqod tarbiyasini berish pedagogik muammo sifatida.

I.1.Imon-e'tiqod tushunchasi va uning ilmiy-nazariy asoslari.

“Al-xosil tarbiya bizlar uchun yo xayot – yo mamot,
yo najot – yo xalokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”.

A.Avloniy.

Darhaqiqat, ushbu misralar tarbiyaning nechog`lik kerakli, zarur, inson uchun suv va havodek fazilat ekanligini ko`rsatadi. Tarbiya qanday bo`lishidan qat'iy nazar, insonni kelajak hayotida o`z o`rniga, jamiyatiga ega bo`lishida muhim asos bo`lib xizmat qiladi. Tarbiyaning bir necha turlari mavjud bo`lib, ular quyidagilardir. Ahloqiy tarbiya, aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, ekologik tarbiya, iqtisodiy tarbiya va xuquqiy tarbiyalar.

Axloqiy tarbiya insonni jamiyatga bo`lgan munosabatini shakllantirish, ya'ni salbiy illatlarga qarshi nafrat uyg`otish, intizom, imon-e'tiqod, halollik va poklikni tarbiyalash, yetuk insonni voyaga yetkazish, insonparvarlikni shakllantirish axloqiy tarbiyani asosi bo`lib xizmat qiladi. Shu o`rinda axloqiy tarbiyaning bir qirrasini bo`lgan imon-e'tiqod tarbiyasi masalasiga alohida ta'rif bersak.

Jamiyatga, atrof-muhitga bo`lgan munosabatni ahloq hamda odob tashkil etadi. O`quvchilarga ahloqiy tarbiya berish nafaqat o`qituvchilarning balki oiladagi ota-onaning ham vazifasidir. Ahloqiy tarbiya milliy qadriyatlarimizni shakllantirish, yuksaltirish, o`zligimizni anglash, mustaqilligimizni e'zozlash, madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda asosiy o`rin egallaydi.

Qadimdan ahloq-odob ulug`lanib kelingan. Chunki ahloq-odob insonga husn, latofat baxsh etgan. Bu haqda buyuk ajdodlarimiz Beruniy, Farobiy, Axmad Yassaviy, Amir Temur, Navoiy, Bobur, Yusuf Xos Xojib, Abu Ali ibn Sinolar tarixda o`z durdona asarlarida fikr-mulohazalar bildirishgan. Bugungi kunda ham buyuk ajdodlarimizning o`lmas meroslari har qanday sohada ilmda, bilimda, mehnatda, ta'limda, tarbiyaning istalgan

turida, san'atda, odobda, har qanday o`qiyotgan darsliklarimizda, eng zarur va birinchi qurollardan biri bo`lib hisoblanmoqda.

Har tomonlama yetuk, ertangi kun asoschisi bo`lgan insonni tarbiyalashda oilada ham, maktabda ham eng avvalo sog`lom muhitni yaratish lozim. Chunki, sog`lom muhitdagina qaerda bo`lmasin uydami, maktabdami bola shaxsini ahloqiy tarbiyaga yo`naltirish mumkin.

Ahloqiy tarbiya Turon zaminimizda qadimdanoq paydo bo`dganini "Avesto" kitobi misolida olishimiz mumkin. "Avesto"da ahloq-odobga doir quyidagi hikmatlarni olishimiz mumkin: Har bir inson o`zi o`ziga ulg`aygan zaminni-mamlakatini eng yaxshi va go`zal deb tushunmog`i kerak. Inson butun umri davomida suv, olov, tuproq, umuman dunyodagi jamiki yaxshi narsalardan pok va but-butun asrashga burchlidir.

Yaxshilik va ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o`z qo`llari bilan noz-ne'matlar yaratishi lozim.

Sukut – eng buyuk odob.

Odob-ahloq jamiyatning poydevori.

Ahloq ijtimoiy ong shakllaridan bo`lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo`lgan ma'lum xatti-harakat qoidalari yig`indisidir.

Ahloq odamlarning bir-biriga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga, ishlab chiqarish vositasiga, mehnat vositalari va shu kabi mahsulotlarni, munosabatlarni muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo`ladi.

Odob – odamning jamoat, el-yurt orasida o`zini tutish, boshqalar bilan qay yo`sinda muomala qilish, o`z turmushi, maishati va bo`sh vaqtini qanday tashkil etishi, xullas shaxsning kundalik xulq-atvori, yurish turishi, xatti-harakatlari qanday bo`lishi lozim va ma'qul ekanligi xususida bahs etadi. Aniqrog`i, ahloq kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlarini sifatida mavjud bo`lsa, odob shaxsning ko`zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlari tarzida namoyon bo`ladi. Ahloq

kishidan har xil holatda qanday yo`l tutish kerakligini yaxshi o`ylab, maqsadga muvofiq harakat qilishni talab etsa, odob o`z qoidalarining odat tusiga kirishini, ya'ni har qanday vaziyatda ana shu odatni namoyon qilishni taqozo etadi. Har bir odam xususida, odatda uning faoliyatiga, qanday ish bilan shug`ullanishiga, bu faoliyati va ishi ahloq talablariga, turmush qoidalariga, jumladan davlat qonunlariga muvofiq yoki xilof ekanligiga asoslanib fikr yuritiladi.

Asrlar davomida ahloq-odob mavzusida qanchadan-qancha kitoblar, hikmatnomalar, odobnomalar, ibratli xikmatlar-u rivoyatlar yaratilgan. Xalq og`zaki ijodi xazinalarida ahloq-odobga doir bebaxo fikr javohirlari borki, ularning hammasini hisoblab, hisobiga, ta'riflab ta'rifiga yetib bo`lmaydi.

Muqaddas kalimalarning deyarli hammasida yaxshi amallarning hidoyati va yomon odatlarning zarari bayon etiladi. Ulardan qanday saqlanish haqida yo`l-yo`riqlar ko`rsatilgan.

Yosh niholning baquvvat daraxtga aylanishi parvarishga bog`liq bo`lganidek, odam bolasi komil inson bo`lib yetishishi uchun ham uni murg`aklikdan ahloq odob ilmidan bahramand yetib borish lozim.

Ahloq ilmi yaxshilik bilan yomonlik o`rtasidagi murakkab muammolar haqida bahs yuritib, insonning kamolotga erishish yo`lini yoritib boradi. Har bir inson bir olam bo`lgani kabi uning ahloq odobi ham juda murakkab olam, desak yanglishmaymiz. Chunki shaxsning zohiriy va botiniy olamini, ayniqsa, qalb olamini o`rganish, bilish, tahlil etish g`oyatda qiyin, bu ruhiyat bilan bog`liq holatdir. Ahloqli, odobli komil insonda odamiylikning eng yaxshi xislatlari:mehr-muhabbat, rahm-shavqat, adolatu diyonat, hayo-yu iffat, vafo-yu sadoqat, himmat-u saxovat, imon-e'tiqod kabilar mujassam bo`ladi, ayni holda, shu xislatlarning aksi beburd, ahloqsiz kimsalar fe'lida ko`rinadi.

Har bir xalqning nufuzi va obro` shuhrati kishilarning ahloqi, odobi, yaxshi xislat-fazilatlarini bilan belgilanadi, shu taxlit bahosini oladi.

Qadimgi faylasuflaru donishmandlar ahloq-odobga juda katta baho berib, uni jamiyatning poydevori deganlar. Shuning uchun ham jamiyat har bir a'zosining xulq-u odobiga alohida e'tibor berishimiz bejiz emas.

Sharqning buyuk allomalari kichik maktab yoshi xarakteridagi ahloqiy belgilarning shakllanishi juda murakkab jarayon ekanligini azal-azaldan ta'kidlab kelingan. Ularning bu sohadagi hayotiy tajribalari, ilmiy-amaliy kuzatishlari, shuningdek, bugungi kundagi pedagog va ruhshunos olimlarning tadqiqotlari jam bo`lib, shaxsning axloqiy fazilatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bu yoshdagi bolalarda har bir narsaga qiziqish, mayl kuchli bo`ladi. Ularning bunday psixo-fizologik xususiyatlari ahloqiy tarbiya uchun qulay imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar juda ham zehnliligi, o`rganishga oson berilishlari bilan ajralib turadilar. Chunki bu yoshdagi bolalarda nerv sistemasining plastikligi, uning atrof-muhitdan keladigan ta'sirlarga faol javob berishi bilan bog`langan. Bola idrok etadigan juda ko`p narsa uning his-tuyg`usi, jiddiy e'tibor berish va taqlid qilish, anglash mavzusiga aylanadi. Biroq, hayot tajribasining cheklanganligi, hissiyotga beriluvchanligi, kattalarning bu yoshdagi bolalarga va ular idrok etadigan narsalarga yetarli darajada baho bermasliklari tufayli ko`pincha yaxshi narsani yomondan ajratish, xatti-harakatning to`g`ri yo`lini belgilashi qiyin bo`ladi. Shuning uchun kattalar bolalarga namuna bo`lishlari va ularga taqlid qilishni o`rgatishlari zarur. Bolaning axloqiy yo`naltirilgan faoliyatini uyushtirishlari, uni muntazam ravishda mashq qilishlari ham zarur.

Bolalarni tarbiyalash, ayniqsa, ahloqiy tarbiyalash u yoki bu usul va yo`l bilan amalga oshirilmaydi. Pedagogik jarayonda turli usullarning butun bir umumlashmasidan foydalaniladi.

Shu zaylda axloqiy tarbiya usullari bolalarda ijtimoiy-axloq, amaliy tajribasining vujudga keltirishini ta'minlaydi. Ularga bolani ijtimoiy-ahloqning ijobiy shakllariga o`rgatish, axloqiy odatlarni tarbiyalash

uslublarini kiritish mumkin. Uning asosiy mazmuni shundan iboratki, bolalar muntazam ravishda har xil vaziyatlarda jamiyatda qabul qilingan qonun va qoidalarga muvofiq ish tutishga, masalan, salomlashish va xayrlashish, xizmat uchun minnaddorchilik bildirish, savollarga xushmuomalalik bilan javob qaytarish, buyumlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo`lish va hakazolarga da'vat etiladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarni ahloqiy jihatdan tarbiyalash juda murakkab, ma'suliyatli ishdur. Shunga ko`ra bu sohani uzoq zamonlardan beri davom etib kelayotgan tarixiy bir jarayon deb hisoblaymiz. Bu masalani uzil-kesil ochishda Sharq mutafakkirlarimizning nodir asarlari asosiy manbalardan biri desak bo`ladi. Allomalar asarlarida aks etgan imon-e'tiqod, axloqiy tarbiyani, buning o`ziga xos uslub va yo`llarini o`rganish pedagogika fani oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda imon-e'tiqodlilikni tarbiyalashning o`ziga xos qirralari mavjud bo`lib, bu qirralar bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash ishlarida katta natijalarga olib keladi.

O`zbeklarning o`ziga yarasha muomala bobida ba'zi odob odatlari borki, ular doimo shu narsalarga qattiq amal qilib keladilar. Islom zarur bo`lgan barcha moddiy va rahiy narsalarni to`liq berish bilan birga, axloq-odob bobida ham oliy darajadagi kamolga yetkazuvchi narsalarni musulmonlarga tavsiya qilgan. Islom joriy qilgan odoblardan biri salomlashishdur. Bu odob hozirgi madaniyatli xalqlar amalga oshirishga undayotgan odatlardandir. Islomda bu narsalar bir necha asr avval bayon qilingan. "Ey, iymon keltirganlar o`z uyingizdan boshqa uylarga ruxsat so`ramay va salom bermay kirmangiz. Ruxsat so`rab, salom berib, kirishlik o`zingiz uchun yaxshidir. Shoyadki buni eslasangiz. Agar o`sha uylarda hech kim topilmasa, ruxsat bo`lmaguncha kirmang. Agar sizga orqaga qayting deyilsa, qayting.

Shunday bo`lgani siz uchun yaxshi. Alloh barcha qilayotgan ishlaringizni bilib turguvchidir". ("Nur" surasi 27-oyat)

Qur'oni Karim va Hadisi shariflarda, musulmon olamining dunyoqarashi, falsafasi, ma'naviyati, axloqi, e'tiqodi har tomonlama barkamolligi kabi insoniy sifatlarni shakllantirish yo'llari bayon qilingan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga imon-e'tiqod tarbiyasini berishda avvalo, ularga "Imon" so'zining mazmunini va mohiyatini tushuntirib berishimiz zarurdir.

Imon nima? Imon – bu Allohning borligiga, uning sifatlariga, payg'ambarlariga, qiyomat kuniga, yaxshilik va yomonlik Allohu subhonu va taolaning o'zidan bo'lishiga va dinda ko'rsatilgan narsalarning majmuasiga ishonish demakdir.

Imon – arabcha so'z bo'lib, ishonch ma'nosini bildiradi. Imonlik kishini mo'min deyiladi. Mo'min, ya'ni imon keltirgan, ishongan odam.

Imon – qalbning duri bo'lib, kishini e'tiqodli, yaxshilikka, ezgulikka, halol va pok bo'lishga undaydi.

Imonli kishining qalbi tiniq va beg'ubor bo'lishi bilan birga, ma'rifatparvardir. Odamlarga, o'z halqiga bo'lgan muhabbati, sadoqati, yaxshiligi, do'stligi, insofi bilan boshqalardan ajralib turadi, bu esa uning insoniy fazilatlarini baland ekanligini ko'rsatadi va qadrini oshiradi.

Qur'oni Karimning "Baqara" surasining 25-oyatida "imon keltirib, yaxshi omillar qilgan zotlarga xushxabar beringki, ular uchun ostlaridan daryolar oqib turuvchi bog'lar bor. Qachon o'sha bog'larning biror mevasidan bahramand bo'lsalar "ilgari tatib ko'rgan narsamiz -ku" deyishadi. Zero ularga surati bir- biriga o'xshash mevalar beriladi. Va ular uchun jannatda pokiza juftlar bordir. U zotlar jannatda abadiy qolajaklar", - deyiladi.

Alloh taolaga imon insonni jismoniy va aqliy qullikdan ozod etar ekan, uni ma'rifatli kasb va hunarda mohir bo'lishga undaydi. Imon taqozosi bilan hayot kechirgan ajdodlarmizdan jahon ahli ilmu-hunar o'rganganligiga butun tarix guvohdir.

Hazrati Ali shunday degan edilar:

“Mening besh pandinga quloq soling: Har biringiz xudodan o`zgadan umid qilmang, gunohdan boshqa narsadan qo`rqmang, bilmagan narsasini o`rganishdan va bilmagan narsadan so`ralganda bilmayman deyishdan uyalmang. Nasihatimning beshinchisi - sabrli bo`ling! Boshning tanada tutgan o`rni qanday bo`lsa, sabrning imonda tutgan o`rni shundaydir. Boshsiz tana bo`lmaganidek, sabrsiz imon ham bo`lmas. Haqiqiy olim kimligini sizlarga aytadigan bo`lsam: insonlarga gunohlarni bezab ko`rsatmaydi, Alloh taolo makridan saqlanishga kafolat bermaydi va Alloh taolo marhamatidan ularni noumid qilmaydi”.

Al-Buxoriy o`z hadislarida o`z qo`shnisiga ozor bermagan, mehmonni hurmat qilgan, yaxshi so`zlardan so`zlagan yoki jim o`tirgan kishining oxirati imonli bo`lishligini ko`rsatib:

“Imon oltmish shu'balardan iborat bo`lib, ularning eng afzali “La ilaha illallohu” kalimasi bo`lsa, eng aqllisi odamlarga ozor beradigan narsalarni yo`ldan chetga chiqarib tashlashdir. Hayo ham imon shohchalaridan biridir”, - deb ta'kidlaydilar.

Imonli kishining qalbi tiniq va beg`ubor bo`lish bilan birga, ma'rifatparvardir. Odamlarga, o`z xalqiga bo`lgan muhabbati, sadoqati, yaxshiligi, do`stligi, insofi bilan boshqalardan ajralib turadi, bu esa uning insoniy fazilatlari baland ekanligini ko`rsatadi va qadrini oshiradi.

Imonli kishi aql-zakovat sohibi bo`lishi bilan birga insoniy, ijtimoiy muammolarni hal etishda faol ishtirok etadi. Birovga xiyonat qilmaydi.

Imonli bo`lish odamning tanlagan yo`li, g`oyasi. Kimki shu yo`ldan kurashsa, o`z g`oyasiga sodiq, imonli odam bo`ladi. Imonli bo`lish o`z xalqiga va uning yaxshi an'alariga hurmat bilan qarashdir. Imon – bu or-nomus, vijdon, sadoqat, burch kabi axloqiy tushunchalarni ham ifodalaydi.

1.2. Milliy qadriyatlarimiz (Qur'oni Karim va Hadis namunalari)da imon-e'tiqod tarbiyasi masalasining targ`ib qilinishi

Din – bu dunyoning o`tkinchi ekanini, oxiratni eslatib turadi, odam bolasini hushyor bo`lishga, xarom yo`llardan uzoq yurishga, yaxshi bo`lishga, yaxshi iz qoldirishga undab turadi.

Musulmon farzandi birovni kofir, birovni xudojo`y deb toifalarga ajratmaydi. Sababi, bandasining ustidan bandasi emas, Xudoning o`zi hukm chiqaradi.

Islom – bu ixlos. Islom-bu omonlik. Islom-bu itoat. Islom-bu yaratuvchining marhamatiga erishtirguvchi yagona nurafshon yo`l. Islom dini poklikni, chin insoniy fazilatlarni qadrlashni qalblarga olib kirguvchi dindir.

Mashhur ingliz faylasufi Fransis Beko o`z tadqiqotlaridan birida shunday deydi: “Inson falsafadan ozgina xabardor bo`lsa dinsizlikka yaqinlashadi, ammo falsafani chuqur o`rgangan kishi dinga qaytib keladi”. Shu gaplardan ko`rinib turibdiki, ilm tufayli ulkan olim Allohga imon keltiradi. Bundan kelib chiqib shu narsani aytish joizki, din va ilm bir-biriga zid narsa emas, balki biri bilan biri butun bo`ladigan narsadir. Biz bunga endigina amin bo`lyapmiz. Qur'oni Karimda esa bu haqiqat bir necha asr oldin aytib o`tilgan:

“Fotix” surasi, 28-oyat: “Albatta Allohdan olim bandalarigina qo`rqadi”.

Shu yaqin vaqtgacha Islomga nisbatan qilinayotgan ta'nalardan biri, go`yoki Islom insonni ehtirom etmas, uning qadr-qimmatini e'zozlamasmish. Sharqshunos Nebavum o`zining “Islom madaniyati” nomli kitobida bunday deydi: “Islom azaldan inson qadrini nihoyatda pastga urib kelyapti. Shuning uchun ham, Qur'on inson qadrini asli arzimas narsadan tuzilganligini e'tirof etib, insoniyatni bunga qanoatlantirishga harakat qiladi”.

Endi e'tiborimizni quyidagi oyatga qaratsak:

“Isro” surasi, 70-oyat: “Biz Odam farzandlarini nihoyatda ehtirom etdik. Ularni quruqlikda va dengizda ulovli qildik, ularga turli noz-

ne'matlardan rizq ato etdik va yaratgan mahluqlarimizning ko`pchiligidan bularni afzal qilib qo`ydik". G'arb faylasufi Sartir esa shunday deydi: "Inson eng past mahluqotlardan, arziyas hasharot yoki axlatxonalarda yashaydigan iflos qurtlardan paydo bo`lgan".

Bu kabi xasta nazariyalar insondagi bor orzu-umidlarni yo`qotadi, insonni noumidlik girdobiga ro`baro` qiladi. Natijada odamlar bu dunyo ishratlariga berilib, u dunyoni unutadilar, shaytoniy hislarga bosh egib bo`ysunadilar.

Bolalik davri shu qadar qobiliyatli davrki, oilada ota-onasining xatti-harakati, ko`chada odamlarning, maktabda o`qituvchisining xatti-harakatini bir umr eslab qoladi va eng fojiviy tomoni shuki, ularni o`zining hayotiga tadbiiq qiladi. Yosh bola go`yoki bir yosh novda. ezgulik tomon egsa ezgulikka, yovuzlik tomon egsa yovuzlikka yondashadi.

Payg`ambarimiz aytganlaridek:

"Har bir tug`ilgan chaqaloq Islom tushunchasi g`oyasi ila tug`iladi. So`ngra bolaning tushunchasini u yashayotgan muhit, davr buzadi. Ota-onasi buzadi".

Hozirgi paytlarda joylarda turli diniy maktablar, madrasalar tashkil etilmoqda. Lekin faqat diniy maktab yoki madrasalarda diniy ta'lim olish shartmas. Nega biz ularning dasturidan o`z maktablarimizda foydalanmaymiz? To`g`ri, biz o`quvchilarga diniy ta'limni oz bo`lsada beryapmiz. Lekin Odam Atoning yaralish tarixi, payg`ambarlarimiz mo`jizalarini xuddi bir afsonaday qilib aytib beramiz. Avvalo biz bunday rivoyatlarga o`tmasdan, dastavval Islom dinining debochasini o`rgatsak ma'qul bo`lardi.

Hozirgi paytlarda o`quvchilarimiz bir savolni o`qituvchilarga ko`proq berishining guvohi bo`lganmiz. Bu savol odam nimadan yasalgani haqidagi savoldir. O`qituvchilar asosan Alloh Taolo tomonidan loydan yasalganligini aytilshadi. Bu eng to`g`ri javobdir. Lekin bola uchun bu jumboq. Chunki bola oyoq ostidagi loyni, tuproqni ko`rib turibdi va o`zi

mana shu tuproqdan yaratilganiga to'la darajada ishonmaydi. Chunki bolada ko'z, tish, soch va shunga o'xshash bir qarashda tuproqdan keskin farq qiladigan a'zolari bor. Buning uchun tushuntirish qanday yo'nalishda bo'ladi? Avvalo Odam Atoning yaratilishi tarixi sodda, bolalar tilida hikoya qilinishiga alohida bir soat ajratiladi.

Odam Ato qissasi.

Bismillahir rohmanir rohim

Alloh Taolo atrofidagi farishtalarga dedi:

Farishtalarim, men yer yuziga Odam va uning zurriyotlarini xalifa qilmoqchiman. Ular yer yuzida saltanat egalari bo'ladi.

Farishtalar bu xabarni eshitib hayron qoldilar. Chunki Alloh Odam Atodan oldin ham yer yuzida odamlarni yaratgan edi. Lekin ular yer yuzida ko'p yomon ishlarni qilib, Allohning g'azabiga uchragan edilar. Shuning uchun Allohga yuzlanib dedilar:

Parvardigoro, yer yuzida turli gunoh ishlarni qiladigan, bir-birining qonini to'kadigan insonlarni yaratasanmi? Axir xalifalikka munosib bizlar bormiz-ku? Nega kerak odamni yaratib?

Shunda Alloh aytdiki:

Men Odam Atoni shunday yaratamanki, buning hikmatu sir-asrorlaridan bexabarsizlar, sizlar hali ko'p narsani bilmaysizlar.

Alloh odamni yaratish uchun yer yuzining turli joylaridan tuproq tanladi va tuproqdan Odam Atoni yaratdi. Keyin yer yuzidagi bor ne'matlardan bahramand bo'lishi uchun odamga halol qilingan narsalarning nomlarini, vujudga kelish tarixi va fazilatlarini o'rgatdi. So'ngra maloikalar kamsitgan va ilmu ma'rifatda o'zlarini undan afzal deb bilgan Odam Atoning ilmi farishtalardan ziyoda ekanligini ko'rsatish uchun ularga dedi:

Agar sizlar o'z'laringizni Odam Atodan ustun deb bilsalaringiz ushbu ne'matlarning nomlarini, fazilatlarini birma bir aytinglarchi?

Farishtalar bularning nomlarini ayta olmadilar va Allohga:

– Ey robbimiz, bizlar sening ulug`ligingni, pok nomingni yod eturmiz. Sening irodangga e'tirozimiz yo`q. Chunki bizlarda o`zing o`rgatgandan ortiq ilm yo`q,- dedilar.

Shunda Alloh Taolo Odam Atoga qarab dedi:

Ey Odam! Farishtalarga men ulardan so`ragan narsalarimning xabarini etkazgin.

Odam Alloh qanday o`rgatgan bo`lsa, shunday javob qaytardi.

Farishtalar shundan so`ng Odamning o`zlaridan ziyoda ekanligini tan olishdi. Alloh Taolo farishtalarga aytdi:

Hammangiz Odam Atoga bosh egib sajda qilinglar.

Alloh Taoloning amriga binoan barcha farishtalar Odam Atoni hurmatlab unga ta'zim bajo keltirdilar. Ammo Iblis otli farishtagina Odamga ta'zim qilishdan bosh tortdi. Alloh hamma narsani bilib turgan bo`lsa ham Iblisdan:

Nima uchun Odamga ta'zim qilmayapsan,- deb so`radi.

Sen shunchalik kibrli bo`lib qoldingmi? Yoki sen yuqori darajaga erishganlardanmisan?

Iblis dedi:

Ha, men undan ko`ra afzalroqman, chunki meni o`tdan yaratding, uni esa loydan yaratgansan.

Alloh Taolo Iblisning bu kibru-havosidan g`azablanib:

Sen jannatdan chiq. Sen u yerdan haydalding, to qiyomatgacha senga mening la'natim bo`lsin! , - dedi.

Shunday qilib Iblis mutakabbirligi va sarkashligi tufayli Odamga hurmat yuzasidan sajda qilishdan bosh tortib jannatdan quvildi va shu vaqtdan boshlab Shaytoni la'in nomini oldi.

Islom tarbiyasi har qanday sharoitda ham berib borilsa, menimcha maktablardagi bugungi ahvolga chek qo`yilardi. Hozirgi paytda ko`pchilik ota-onalar bolalarning tarbiyasi xususida qayg`urmay qo`yishdi. Bolasini pul topishga majbur qilishyapti. Go`yoki hayot shunga majbur

qilayotganmish. Bolasi ilm olish o`rniga bozorda sigaret sotsa, ibodat qilish o`rniga turli-tuman noma'qul kinolarni ko`rsa, bunga yo`l qo`yib bergan ota-onaning ahvoli oxiratda qanday bo`ladi.

Bir paytlar bola “3” baho olsa yig`lardi. Hozirchi? “2” tugul “1” olsa ham parvoyi falak, o`qituvchi bilan gap talashadi.

Nega biz bolalarimizga yoshligidan boshlab Allohni tanitmaymiz? Maktablarimizda hali-hali bu borada yetarli ishlar olib borilmayapti. Ota-onalarimiz ham talab qilishmaydi. Hadisi Sharifda ilm o`rganishning erkakdir, xotindir har bir musulmonga farz ekanligi bayon etilgan. Farzi ayni deyilganda qaysi bilimlar nazarda tutilganligi munozarali bo`lsada, xoh o`g`il, xoh qiz bo`lsin unga odobu ikrom qoidalarini, diniy va dunyoviy bilimlarni o`rgatish ota-onalarning burchi ekanligi bugungi kunda isbot etilgan haqiqatdir.

Hadisi Sharifdan:

Adiy ibn Xotam rivoyat qiladilar: “Nabiy s.a.v. do`zax haqida eslar ekanlar yuzlarini o`tdan pano qilgandek harakat qilib: “A'uzi billahi”, - deb qo`ydilar. So`ng yana do`zax haqida gapirib, yuzlarini o`tdan pano qilgandek harakat qildilar: “A'uzi billahi”,- dedilar. Keyin: “Yarimta xurmo sadaqa qilib bo`lsa ham o`zingizni do`zax otashidan saqlangiz. Agar shuni ham topolmasangiz, odamlarga shirin so`z aytingiz!”, – dedilar. “Shirin so`z – jon ozig`i” deganday shirin muomala bilan har qanday odam ko`p narsaga erishishi mumkin. Ko`chalardagi bolalarning bir-biriga muomalasini ko`rib ko`ngling xira bo`lib ketadi. Bu bugun o`rtog`ini ranjitsa ertaga ota-onasini ranjitmaydimi?

Hadisi Sharif orqali nafaqat shirin so`zlikka, mehr, rahmdillikka, shafqat, ota-onaga, do`st-yorlarga hurmat, sahovat, xushxulqlik kabi tarbiyaviy bilimlar berib borsak bo`ladi.

Hayvonlarga shafqat

Hadis kitoblarimizda Sunani Abu Dovudga Abu Xurayra hazratlaridan rivoyat qilinadiki, payg`ambarimiz Ansordan bir zotning

devori yonidan o`tar ekanlar u yerda bog`langan tuyani ko`rdilar.

Payg`ambarimizni ko`rib tuya yig`lay boshladi. Payg`ambarimiz:

Bu tuyaning egasi kim, kim unga qaraydi?, - deb so`radilar.

Bir yigit chiqib:

Meniki, yo Rasulliloh!, - dedi.

Payg`ambarimiz:

Sen Allohdan qo`rqmaysanmi? Bu tuyani senga Alloh ehson etgan. Bu hayvon sendan shikoyat qilmoqda. Sen uni yaxshi parvarish qilmas ekansan. Bu tilsiz, dardini ayta olmaydigan hayvonga yaxshi qara va ayab foydalan. Unga nisbatan marhamatli bo`l, -deb ul odamga nasihat qildilar.

Qilmishiga yarasha jazo

Bir vaqtlar bir odam doimo duo qilar ekan: “Yo Robbim, adolatingni istayman”. Ul odamning duosi qabul bo`ldi.

Kunlarning birida ul odamning qorniga po`lat qoziq sanchildi. U shunday o`lim jazosiga buyurilgan edi. U odam qorniga sanchilgan temir qoziq azobidan baqirib-baqirib o`lar ekan:

Yo Robbim! Necha kunlar duo qildim, adolat istadim qabul etmading, - dedi.

Ul odamning qulog`iga g`oyibdan bir sas keldi:

Ey inson! Sening duoying qabul bo`ldi. Sen duo qilayotganingda Allohning adolatini istarding. Alloh adolati xuddi shudir. Chunki sen pashshalarning qorniga igna sanchar eding, u gunohsiz jonivorlarning qiynalib o`lishidan zavqlanarding. Duoying qabul bo`ldi. O`sha begunoh mahluqlarni qanday o`ldirgan bo`lsang, o`zing ham ana shunday o`lim bilan jazolanasan. Jonivorlarning qasosi olindi.

Bandalarning bir-biriga xiyonat, birovning xaqqiga xiyonat va bir-birlariga zulmi haqida.

Xazrat Oysha (R.A.)rivoyat qilibdilarki:

Payg`ambar alayhissalom aytdilarki, gunoh 3 xil bo`lur. Birinchi Xudoyi Taolo karam qilsa kechiradi, ikkinchi xilini karam qilib kechsa

ixtiyori bordir, lekin xargiz kechmas. Uchinchi xilini kechmoqqa Xudoyi Taoloning ixtiyori yo`qdir.

Xudoyi Taolo karam qilsa kechadurgan gunoh shulki, bu gunoh banda birla Xudoyi Taoloning miyonasida bo`lur, ya'ni banda gunohni Xudoyi Taologa qilurki, buyurgan namozni o`qimas, ro`zani tutmas. Bu tariqa gunohni kechiradi. Ammo Xudoyi Taolo karam qilsa kechirmoqqa ixtiyori bor-u, lekin kechirmaydigan gunoh, Allohga shak keltirib, kofir bo`lmoqdir. Andog` bandaga jannatni xarom qilib, abadul abad do`zaxda kuydirur. Ammo Allohning kechmog`iga ixtiyori bo`lmaydigan shulki, bu gunoh 2 bandaning miyonasida bo`lur, ya'ni banda yana bir bandaning xaqqiga xiyonat va zulm qilurki, to o`shal zulm ko`rgan banda rozi bo`lmaguncha ani Alloh kecholmas, chunki kechsa ul zulm ko`rgan bandaning xaqqi zoe bo`lur, vaholanki uning xaqqini zoe qilmoq zulmdir va Xudoyi Taolo zulmdin beridur. Bandaning gunohi Allohga qilingan tavba va istig`for birla avf qilinur, ammo bandaga qilingan zulm va xiyonat to uning rizosi bo`lmasa tavba va istig`for qilgan birla avf qilinmas.

O`g`irlik va tangri tayog`i

Hazrat Jamoliddin Rumi bir o`g`rining boshiga tushgan ish haqida ko`p ibratli narsani aytgan. Bir kuni o`g`ri boqqa kirdi va u erdagi eng yaxshi mevali daraxt ustiga chiqdi. Ammo mevalarning pishgan va yaxshilariga qo`li yetmadi. Shundan keyin daraxt shoxlarini silkitib, mevalarni yer bilan yakson qildi. Shoxlarning qisirlashini eshitib bog` egasi shu daraxt tagiga keldi va tepasidagi odamga baqirdi:

Ey nodon odam! Nimalar qilyapsan? Kimsan? Hamma mevalarni yerga tushurib, ezib yuboribsanku! Allohdan qo`rqmaysanmi? Mevalarni nobud qilibsanku!

Daraxt ustida o`tirgan o`g`ri hech uyalmay huddi o`zining daraxti ustida o`tirganday bunday debdi:

Ey odam. Sen nega baqirasan? Tangri bog`ida, Tangrining bir quli meva esa ayb bo`ladimi? Sen o`zi nima demoqchisan?

Unga bog` egasi:

Pastga tushgin, bilasan, - dedi

O`g`ri pastga tushdi, bog` egasi uning qo`llaridan mahkam ushlab oldi va xizmatkorini chaqirib buyurdi:

Ana u tayoqni olib mana bu o`g`rini ur!

Xizmatkor tayoq bilan o`g`rini ura boshladi. O`g`ri faryod qilib dedi:

Nega meni bekordan-bekorga uradi! Allohdan qo`rqing!

Bog` egasi:

Sen nega baqirib chaqirasan? Tayoq Allohning tayog`i. Urayotgan Allohning qo`li. U Allohning buyrug`ini bajarmoqda-ku, buning qanday gunohi bor,- dedi.

Bir vaqtlar bir mahallada badavlat odam yashar edi. Bu odamning ikkita o`g`li bo`lib, ular tantiq bolalar edilar.

Qo`shnilaridan biri keksa, oqil, yaxshi axloqli, hammaga mehribon zot edi. Bir kuni oppoq soqolli keksa odam bolalarning otasiga:

- Qo`shni, shu o`g`illaringizga bir oz din darsini bersangiz, siz uchun juda yaxshi va xayrli bo`ladi. Diniy tarbiya olgan bolalar go`zal axloqli bo`ladilar. Keyin menga rahmat deysiz. Men keksayib qolgan, achchiq-chuchukni tatigan tajribali odamman. Siz hali yoshsiz, tajribangiz har holda oz. Bolalaringizga din o`rgatuvchi ustoz topig. Ularga odob, ahloq, tarbiya, din fazilat darsini bersin. Shundan keyin siz rahmatlar ko`rasiz va menga rahmatlar aytib eslab yurasiz, - dedi.

Bolalarning otasi badavlat bo`lsa ham, hayotiy tajribasi oz, bir muncha puli ko`p bo`lgani bilan aqli uncha o`tkir, fahmi kuchli bo`lmagan odam edi. Ammo bir oz dunyo to`plagan edi. Shul sababdan u achchiq-chuchukni totgan keksa qo`shni nasihatlariga bunday javob berdi:

- Men farzandlarimga ko`p davlat to`pladim. Bul meros ularga bermalol yetadi. Din darslariga, ahloq darslariga ehtiyojlari yo`q.

Oradan 10-15 yil o`tdi. Bir kun o`g`illari bilan dasturxon atrofida o`tirib, ul odam:

O`g`lim, menga ozgina suv bergin, - dedi.

Kichik o`g`il otasiga:

Ota! Suv oldingizda turibdi, ana paqir, ana cho`mich,- dedi.

Ukasining otasiga qilgan muomalasini katta o`g`il qo`pol deb o`yladi shekilli:

– Ota, siz bu o`g`lingizning fe'li, ahloqi qandayligini bilasiz. Unga aytib o`tirmay, shunday turib yoningizdagi chelakdan suv olib icha qoligda, menga ham bir cho`mich suv berving,- dedi.

Mana bu hikoyadagi bolaning ahloqsizligiga kim aybdor? Otasiga ish buyurayotgan bolani ayblay olasizmi? Bunday bolalar otasi qarib, kuch-quvvatdan qolgandan keyin, uyidan haydab chiqarishdan ham qaytmaydilar. Bunday bo`lishiga ota-ona aybdor. Quyida keladigan hikoyamiz ham noqobil farzandlar haqida.

Ota-onaga qo`l ko`tarmoq imonsizlik alomati

Bir xoja qaysidir bir qishloqdan o`tib ketayotib, yig`lab o`tirgan keksa odamni ko`ribdi va undan so`rabdi:

– Bobo, nega yig`layapsiz? Biror dardingiz bormi?

– Mana, 80 yildirki, - javob beribdi qariya, - dunyo mashaqqatlari va tashvishlarini tortaman. Bolalarimni ming azob bilan o`stirdim. Qizim bor edi, xayrsiz chiqdi. O`g`lim askardan kelgandan so`ng uylantirdim. Kelinim qo`lidan bir piyola choy ichmadim. Kelin: “Chol men sening ajin bosgan, xunuk nusxangni ko`rgani bu erga kelgan emasman”, - deb menga ozor beradi. “O`g`lingni gapirasan, o`g`ling ajoyib. Dunyo bir yonda, erim bir yonda. Agar u bir luqma ovqat bersa yeysan, bermasa ro`za tutasan, ey chol” ,- deb ta'na qiladi. “Men hayvon emasman-ku”, - deb chol yana yig`labdi, cholning ikki ko`zi ikki buloq bo`libdi.

– Boshqa boradigan yeringiz yo`qmi?, - so`rabdi xoja.

– Qaerga ham boraman, boshqa boshpanam yo`q. Kecha o`g`limdan pul so`radim, ikki shapaloq urib chaqa berdi-da, bu yerdan daf bo`l, seni ko`zim ko`rmasin deb haydadi. Xoja oxiri choldan so`rabdi:

– O`g`lingiz namoz o`qiydimi?

– Qayoqda! Xayit namoziga ham bormaydi,- deb javob beribdi chol.

Ba'zi odamlar jaholatlari yoki sovuqqonligi sababli, farzandlariga tarbiya bera olmaydilar, dinni o`rgatmaydilar, natijada avlodlari yo dinsiz, yoki jog`il bo`ladilar.

Ota-onani qarovsiz qoldirgan avlodlarni eng “go`zal” jahannamning olovli otashi tarbiyalaydi. Bolalarning moddiy ta'minoti, maishati, ularga turli-tuman yaltiroq kiyimlar kiydirish, qayta sotish uchun “lyuks” mashinalar olib berish uchun kecha-yu kunduz tinmaydigan otalar farzandlarining diniy ma'naviy tarbiyasiga e'tibor bermaydiganlar qatoriga kirishlarini bilolsaydilar. O`g`lining ovqatini o`ylaydigan ota nega uning dini uchun jon kuydirmaydi?! Bunday otalarning jazosi qanday bo`ladi?!

Bolalariga tarbiya bermagan, ota-ona qadrini anglatmagan din, imon, Alloh, payg`ambar kimligini, xarom nima, halol nima, savob-gunoh nimaligini o`rgatmagan ota-onaning bu dunyoda ko`radigan jazosi farzand kaltagi bo`ladi.

Rost gapirishning xosiyatlari.

Islom buyuklaridan Abduqodir G`iloniy bolaligida o`qishga borish uchun onasidan ruxsat so`radi. Onasi ruxsat berdi, faqat qayerga borib o`qishini so`radi. Yosh Abduqodir onasiga o`sha paytlarda Islom dunyosining ilm-ma'rifat markazi bo`lgan, Bog`dodga borib o`sha yerda o`qimoqchi bo`lganligini aytdi. Onasi rozi bo`ldi. Onasi kichkina Abduqodirni juda ham sevar, undan ayrilishi qiyin bo`lsa, Alloh yo`lida ilm o`rganishi uyda o`ynab yurishdan yaxshiroq deb tushundi. Va o`g`lining xirqasining ichiga tushib qolmasin va yo`qolmasin deb 40 oltin tikib qo`ydi. O`g`liga:

– O`g`lim, hech yolg`on gapirma. Musulmonlik to`g`rilik dinidir, to`g`rilikdan ayrilma,- deb nasiyat qildi. Yo`lda karvon qarshisidan oltmishta otliq chiqib to`sdi. Bular yo`lto`sar, karvonlarni talaydigan qaroqchilar to`dasi edilar. Ko`pchilikni o`ldirdilar. Qaroqchilardan biri boladan nimasi borligini so`radi. Bola yolg`on gapirmaslik haqida onasiga bergan so`zini xotirlab:

– Qirq oltinim bor,- dedi.

Qaroqchi bu bola meni aldayapti deb o`ylab undan nari ketdi. Keyin boshqa biri keldi:

Ey bola qancha puling bor,- deb so`radi.

Qirq oltinim bor,- dedi yana.

Yupun kiyingan bu bolada qirq oltin nima qiladi, aldayapti deb o`ylab u ham nari ketdi.

Keyin uchinchi yo`lto`sar kelib:

Qancha puling bor, bola,- deb so`radi.

Bola unga ham:

Qirq oltinim bor,-deb javob berdi.

Qaroqchi bolaning qo`lidan ushlab, boshliqlari oldiga olib bordi va:

Mana bu bola qirq oltinim bor, deyapti,- dedi.

Qaroqchilar boshlig`i:

Oltining qani,- deb so`radi.

To`nimning ichida,- deb javob berdi bola .

Bosh qaroqchining buyrug`i bilan to`nni yirtib ko`rishdi. Haqiqatan uning ichidan 40 oltin chiqdi. Qaroqchilar boshlig`i hayrat bilan:

Nega to`g`risini aytding? Yolg`on gapirganingda oltinlaringni qutqarib qolarding,- dedi.

Yosh Abduqodir kulimsirab dedi:

Hech yolg`on gapirmayman deb, onamga so`z berganman.

Ko`zlari qon va gunohga g`arq bo`lgan qaroqchilar diqqat va sinovchan bir nazar bilan Abduqodirning yuziga tikildi. Birdan

qaroqchining ko`zi ochildi, hayrat va hayajondan ko`zlaridan ikki tomchi yosh sizib chiqib yuziga oqdi va mehribonlik bilan:

Qarang, bu bola onasiga bergan so`zida turibdi va unga vafo qilmoqda! Men esa shuncha yillardan beri Allohingga xiyonat qilib kelaman. Bu yigitcha mening xaloskorim bo`ldi, men barcha razil ishlarimdan tavba qilaman! - dedi.

Qalbi, qahri toshday qattiq boshliqlarining atrofidagi qaroqchilar barobariga:

Shu kunga qadar yo`l to`sib, odam o`ldirib, qaroqchilik qilishda boshlig`imiz eding, endi gunohlarimizga tavba qilish va yaxshi xayrli ishlarda bizga bosh bo`l, - deb hayqirdilar.

Boshliqlarining buyrug`i bilan karvonda kimdan nima olgan bo`lsalar qaytarib berdilar, karvon esa omon yo`lida davom etdi. Qaroqchilarning tog` qoyalaridek qattiq tosh qalblari yumshab tavba qildilar. Qilgan ishlaridan pushaymon bo`ldilar...

Mana, xalqimizning “Boshingga qilich kelsa ham rost gapir”, “Oqibati senga zarar keltirsa ham to`g`ri so`yla” degan hikmatli gaplari bejiz emasligi ko`rinib turibdi. O`shanda Abduqodir yolg`on gapirganda ham qaroqchilar unga ziyon zahmat yetkazmasdilar, ammo yana necha-necha karvonlar talanardi, necha yuzlab odamlarning ular qo`lida boshlari kesilardi, Yosh Abduqodir butun boshli qaroqchilar to`dasining imonga kelishlariga sabab bo`ldi. Va bunga oilada olgan tarbiyasi orqali erishdi.

Yolg`onchilik barcha razolatlarning aslidir. U jamiyatni parchalaydi, barcha ishlarni buzadi va o`z egasining obro`sini to`kadi. Odamlar uning gapiga ishonmay qo`yadi va biror ishni ishonib topshirmaydilar ham. Hayotda ko`pchilik hunarmand bo`lib, odamlar orasida muomalada, oldi-sottida ishonch qozonmog`i zarur. Yolg`on esa ishonchni yo`qqa chiqaradi. Shuning uchun ham Alloh yolg`onchilarni yo`ldan adashganlar qatoriga qo`shadi.

Va'daga vafo qilmaslik odati ham yolg'ochilikning bir turidir. Shu ishni qilgan kishi irodasiz, yaxshilik chiqmaydigan va ishonib bo'lmaydigan odam bo'ladi.

Ilm boylikdan ustundir

Bir vaqtlar Misrda aka-uka yashar ekan. Biri ilm o'rgandi. Biri boylik orttirdi. Biri o'z zamonasining eng buyuk olimi bo'ldi. Uning ukasi esa Misrning eng badavlat kishisi bo'ldi. Boy bo'lgan uka faqir bo'lib qolgan ilmli akasiga mensimay qarar, uni doim kamsitardi.

Men boy bo'ldim, buyuk saltanat egasi bo'ldim. Sen esang faqir va yo'qsil, miskin va nochor qolding, - der. Olim bo'lgan akasi uning so'zlariga hech e'tibor bermas va o'zini mag'rur tutar edi. U boy ukasiga shunday derdi:

Ey o'zingni bilmagan qardoshim! Tushunmasdan og'zingga kelgan so'zni gapirma! Men Janobi Haqqa qancha shukrona qilsam arziydi. Chunki meni o'z payg'ambarlariga voris qildi, ya'ni menga ilm boyligini berdi. Mening nazarimda ilmdan buyuk, ilmdan fazilatliroq hech narsa yo'qdir. Sen esa fir'avnning, xomonning va qorunning merosiga ega bo'lding. Sen umringni mol to'plamoqqa bag'ishlading."Molimning boshida cho'ponlik qilayin, qo'riqlayin" deb, umring besamar ketdi. Sen o'lganingdan so'ng eski sopolni ham olib ketolmaysan. Shuning uchun sen molingni boshqalar uchun to'plagansan. Senga Allohning savol-javobidan va azobidan boshqa narsa qolmaydi. Men esa oyoq ostida chirqiragan bir qushcha kabi xokisorman. Sen esa ignang bilan hammani chaqadigan, ozor beradigan qizil qovoq ari kabisan. Men insonlarga azob beradigan quvvat bermagani uchun Janobi Haqqa qanchalar shukronalar qilsam ham kamdir,- debdi

O'tgan asrda ovrupaliklar orasida "Islom dini fikriy harakatlarning dushmani bo'lgan barcha ilmiy va falsafiy harakatlarga qarshi kurash ochgan", degan noto'g'ri fikr tarqalgan edi.

Haqiqatni olganda ilmga qarshi urush ochganlar boshqa dinlarning peshvolari bo`lgan. Ular ba'zi bir sodda diniy kitoblardan kulib, ularni ibtidoiy jamoadagi kishilarning fikri deb atadilar. Qulay fursat topilishi bilan dinni hurmatsizlash payida bo`ldilar. Bu ish oxiri borib dindand yuz o`girib, dinsizlikning tarqalishiga sabab bo`ldilar. Hattoki ba'zilar dindorlik johillikdir, degan fikrga ham bordilar.

Ammo biz Qur'oni Karim, Hadisi Sharifni mutoala qilarkanmiz, Islom musulmonlarga taraqqiyot yo`lidan yurishni farz qilganligiga amin bo`lamiz. Islom kishilarni ilmga undagan, chunki inson shaxsiyatini ilmdan yaxshi narsa yo`lga sola olmaydi va taraqqiyotga ham erishtira olmaydi. Islom dini insonlarni teran fikrlashga, imon-e'tiqodli bo`lishga undaydi va u bu to`g`ri fikr orqali adolatni himoya qilib chiqadi.

Birincni bob bo`yicha xulosa

O`zbek xalqi ko`p asrlik tarixiy taraqqiyotida milliy xususiyati, yashash joyiga ko`ra, urf-odatlar va an'analari, dunyoqarashi, ruhiyati va orzulari mujassamlashtirilgan iqtisodiy va ma'naviy madaniyatini yaratdi. U yaratgan maddaniy boyliklar, yodgorliklar yoshlar tarbiyasida, jumladan, axloqiy tarbiyaning bir qirrasini bo`lgan imon-e'tiqod tarbiyasini berishda muhim vosita bo`lib xizmat qildi.

Farzandlarimizni diniy, dunyoviy ilmlaridan boxabar qilib, qalbini go`zal axloq, yuksak fazilatlar bilan bezash bizning zimmamizdagi vazifadir.

Har bir ota-ona o`z farzandini o`shib ulg`ayish, imonli, ilmli, odobli bo`lishini orzu qiladi. Shu maqsadda yaxshi umid bilan bor ilmi, kuch g`ayratini ishga soladi. Unga axloqiy, diniy, dunyoviy tarbiya, ilm beradi. Chunki dunyoda din ta'limotlari mavjud. Din – «ishonch», «ishonmoq» ma'nolarni anglatib, ilohiy kuchlarga, xudoga, payg`ambarlarga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, oxiratga, butun yaxshi yomonlik Yaratganning irodasi bilan bo`lishga ishonmoqlik, shayton va iblislardan

saqlanish, komil insonni tarbiyalashda ma'naviy axloqiy-kuch. Din tabiat, jamiyat inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatni bevosita qurshab olgan muhitdan tashqarida uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga birdan-bir «to'g'ri», «haqiqiy», «odil» hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ta'limotdir. Ko'rinib turibdiki, islom dinida axloqiy tarbiya diniy tarbiyaning ajralmas qismidir.

Chunonchi, Ismoil al-Buxoriy, Al-Xorazmiy, Abu Nasr farobiy, Abu Ali ibn Sino, Rudakiy, Firdavsiy, Abu Rayxon al-Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Sa'diy, Sheroziy, Ahmad Yassaviy, Nizomiy Ganjaviy, Fariddin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa allomalar o'z asarlarida yoshlarga axloq, odob, imon- e'tiqod, nafosat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik g'oyalarini bayon etdilar va yosh avlodga taqdim etdilar. Ular tomonidan qoldirilgan nodir asarlardan hozirgi kunda ham yoshlar tarbiyasida samarali foydalanib kelinmoqda.

II Bob. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga imon – e'tiqod tarbiyasini berishda sharq mutafakkirlari asarlari – tarbiya vositasi sifatida.

2.1. Abu Nasr Farobiy asarlarida bolalarni imon – e'tiqodli qilib tarbiyalash masalalarining targ'ib qilinishi

Abu Nasr Farobiy – o`rta asr Sharqining mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon falsafasining Sharqdagi eng yirik davomchisi va targ`ibotchisidir. U Sirdaryo bo`yidagi Utror (Forob) shahrida 873 yilda tug`ilib, Shosh (Toshkent), Buxoro shaharlarida o`qidi, so`ng Arab xalifaligining markazi Bag`dod shahriga borib, u yerda ko`p yil istiqomat qildi. Yunon faylasuflarining asarlarini mutolaa qilish, turli tillarni o`rganish bilan shug`ullandi, o`z davrining mashhur olim—fozillari bilan muloqotda bo`ldi. Umrining so`nggi yillarida Damashqda yashadi, 950 yilda vafot etdn. U turli sohalarga oid ilmny asarlar qoldirdi. U o`z davrining faylasufi, musiqachisi, shoiri, qomusiy olimi sifatida shuhrat qozondi. U «Aql haqidagi risola», «Falsafadan oldnn nimani o`rganish kerak», «Substantsnya haqida», «Falsafa manbalari», «Logikaga kirish», «Masalalar manbai» kabi 100 dan ortiq risolalar yaratdi.

Farobiy qadimgi yunon ilmlarining chuqur bilimdoni bo`lgani, uning Sharqda tarqalishi va rivojiga katta hissa qo`shgani tufayli «Sharq Aristoteli», «Ikkinchi muallim» (Aristotel birinchi muallim) hisoblangan.

Farobiy birinchilardan bo`lib o`z davri ilmlari klassifikatsiyasini yaratdi va unga bag`ishlab qator risolalar yozdi. U o`z davrida musiqa masalalariga bag`ishlab yozgan asarlarida musiqa nazariyasining tafsifini berdi va Sharqda keng tarqalgan nay, nog`ora, chang, rubob kabi turli asboblarni ta`riflaydi. Uning bu asari Sharq musiqashunosligi tarixida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Farobiy o`z davrining buyuk olimi sifatida matematika, tibbiyot, arab tili grammatikasi, alximiya, mantiq ilmlariga oid asarlar ham yozdi. Ammo, avvalambor, mashhur faylasuf bo`lib, falafaning eng muhim masalalari bo`yicha qator asarlarining muallifi sifatida shuhrat qozondi.

U Sharqda qadim yunon falsafasi, qadimgi dunyoning eng mashhur olimi Aristoteliing asarlarini o`rganish, ularga sharhlar yozish g`oyalarini targ`ib etdi va faylasuf g`oyasini yanada rivojlantirishga ulkan hissa qo`shdi, butun Sharqda «ikkinchi muallim» unvoniga sazovor bo`ldi,

yunon olimlari Platon, Galen., Evklidu Parafiy, Suqrot kabi olimlar risolalariga sharhlar yozdi.

Farobiy o`z davrida ijtimoiy-siyosiy hayotning turli masalalari haqida fikr bildirib, uni boshqarish, turli ijtimoiy nizolarning oldini olish, kamolotga erishgi ijtimoiy jamoani yaratish kabi ijtimoiy utopik masalalarni olga surdi, etuk jamoani vujudga keltirish komil insonni yaratish muammosni hal etish bilan bog`liq ekanligini bayon etdi. Uning «Ideal shahar aholilarining ra'ylari», «Ideal jamoa haqida», «Baxt-saodatga erishuv to`g`risida» kabi mashhur asarlari shu masalalarga bag`ishlangandir.

Farobiy olamning turli-tumanligini tabiatning nihoyatda boyligini e'tirof etib, ularning asosida 4 element – er, suv, olov, havo yotishini, shu bilan birga, olamning ibtidosi, boshlang`ich yaratuvchi kuchdan nurlanish yordamida pog`onama pog`ona bo`lib vujudga kelganligini ta'kidlaydi.

Farobiy fikricha, mavjudotning eng buyuk va yetuk mahsuli – bu insondir. Inson o`zining ongi, aqli sezish a'zolari tufayli olamni har tomonlama urganish qobiliyatiga egadir. Inson o`z aqli yordamida o`zini o`rab olgan mavjudotning mohiyatini tushunadi.

Farobiyning pedagogik ta'limotlari o`z davri uchun ayniqsa katta ahamiyatga ega bo`lib, insonparvarlik g`oyalari bilan sug`orilgan.

Farobiy insonparvarligi uning ta'lim-tarbiya, inson shaxsiyatini kamol toptirishning yo`l – yo`riqlari, ilm-ma'rifatga erishuvning usullari, ijtimoiy muammolarii yechish masalalari asosida yotadi. Bu muammolarni Farobiy inson, insoniylik, yetuk insoniy jismlarni yaratish nuqtai nazaridan hal etishga intiladi.

Farobiy O`rta asr Yaqin va O`rta Sharqida ilg`or pedagogik ta'limotlarning asoschilaridan biri sifatida o`z asarlarida didaktik ta'lim-tarbiyaning psixologik asoslarini, etika, estetikaning muhim nazariya; masalalarini o`z falsafasining ajralmas qismi tarzida tahlil etadi. Farobiy insonni kamolotga yetkazish, ta'lim tarbiya, ijtimoiy muammolarni hal

etish kabi kundalik masalalar bilan mashgʻul boʻladi. Uning uqtirishicha, insonni baxt-saodatga eltuvchi jamoa yetuk jamoa boʻla olishi mumkin. Komil insonni yaratish, uni baxt-saodatga eltish har qanday davlat jamoa boshligʻining vazifasi boʻlishi darkor.

Farobiy inson bilimining rivojida ilm-fannning rolini hal etuvchi deb biladi, tashqi olamni oʻrganish, tabiat sirlarini bilishda tabiiy bilimlarning rolini alohida qayd qiladi. Farobiyning taʼkidlashicha, insonni tarbiyalash ikki xil usul yordamida olib borilishi mumkin. Agar tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy, aqliy va axloqiy xislatlarni – bilimli boʻlishga toʻgʻrilikni, haqiqatni sevishga, jasur doʻstlarga sadoqatli boʻlish kabi fazilatlarni egallashga intilmasa tarbiyachi, muallim unday fazilatlarni shakllantirmogʻi lozim. Bunday insoniy fazilatlarga ega boʻlish uchun baxt-saodatga eltuvchi jamoa boʻlishi kerak.

Demak, Farobiy pedagogik masalalarni va uzviy bogʻliq boʻlgan psixologik, fiziologik muammolarni falsafaning muhim qismi sifatida talqin etadi hamda insonni har tomonlama yaxlit va oʻzaro uzviy bogʻliq boʻlgan qismlardan iborat ekanligini aytib, uni bir butun holda oʻrganishni tavsiya etadi.

Insonni baxt-saodatli jamoaning aʼzosi qilib tarbiyalash uchun izchillik bilan ish olib borish lozim. Komil inson va baxt-saodatga asoslangan jamoa, bu yaxlit bir masaladir. Shunga koʻra, baxt-saodatga eltuvchi jamoaning rahbari, Farobiyning taʼkidlashicha, komil inson uchun zarur boʻlgan barcha fazilatlarni hamda yetuk rahbar uchun shart boʻlgan xislatlarni egallagan boʻlishi kerak.

Farobiy oʻz falsafiy qarashlari, jumladan, pedagogik gʻoyalari, xususan, ijtimoiy pedagogik gʻoyalarni bilan Sharq va Gʻarbning soʻnggi mutafakkir olimlariga – Ibn Sino, Beruniy, Miskaveyx, Ibn Rushd, Ibn Xaldum, Rodjer Bekon va boshqalarga katta taʼsir koʻrsatadi.

Farobiyning pedagogik qarashlarini, taʼlim-tarbiya haqidagi taʼlimotini oʻrganishda inson xislatlari toʻgʻrisidagi falsafiy fikrlari

nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Farobiy o`zining falsafiy qarashlarida odamning tuzilishini, ruhiyatini, moddiy va ma'naviy olamini o`rganishga ahamiyat beradi.

Farobiy ta'limoticha, inson barcha boshqa jismlarda bo`lmagan qobiliyat va kuchga – ruhiy quvvatga – aql va so`zlash qobiliyatiga ega, bu kuch uni tabiatdagi boshqa jismlardan ajratib turadi va uning ustidan hokim bo`lish imkoniyatini beradi. Farobiy o`simlik va insonga oid bo`lgan xususiyat va qobiliyatlarni bir butun holda quvvat atab, uni o`shish quvvati, hayvoniy quvvat va insoniy quvvat deb uchga ajratadi.

Farobiy o`z dunyoqarashida narsa hodisalarni bilish, inson aqlini bilim bilan boyitish uni ilmi, ma'rifatli qilish uchun xizmat qiluvchi ruhiy jarayonlarga alohida e'tibor beradi. Farobiy o`z asarlarida bilishning ikki bosqichi – hissiy bilish va aqliy bilish haqida fikr bildirib, hissiy bilishning darajalari, kelib chiqishi, rivojlanishi haqida fikr bildiradi. U bilish jarayoni va inson bilimlarning kelib chiqishi haqida shunday deydi:

Inson bilimlarni aql va sezish organlari orqali qo`lga kiritadi. Seziluvchi obrazlar his etish orqali, aqliy obrazlar esa seziluvchi obrazlar orqali bilinadi.

Farobiy «Hikmat asoslari» (Fusus al-hakim) risolasida sezish turlariga baho berib, tashqi ob'ektning sezgi a'zolariga ko`rsatgan ta'siri natijasida uning o`zgarishini alohida qayd qiladi.

Farobiyning ta'limoticha, insonning besh sezgi a'zosi besh turli vazifani bajarishga muvofiqlashgan bo`lib, ular tashqi muhitdan olingan xabarlarini bir yagona markazga olib keladi va bu markazda barcha xabarlar – obrazlar umumlashadi. Odam a'zolarining markazi bo`lgan yurak tana va uning a'zolarini qon bilan ta'minlaydi, qon yurak orqali butun a'zolarga tarqaladi. Ikkinchi markaz miyadir. Miya qon bilan tirik bo`lganlign sababli, yurakka bo`ysunadi, ya'ni yurakdan qon oladi, lekin shu bilan birga, u butun a'zolarga rahbarlik qiladi, o`z buyrug`iga bo`ysundiradi, ularni ma'lum mo`tadillikda ushlab turadi. Demak, Farobiyning fikricha

birinchidan, insondagi ruhiy jarayonlar bilan fiziologik anatomik jarayonlar ruhiyat a'zo bilan bog`liq, ikkinchidan, yurak insonning biolog`ik hayotini, miya esa, ruhiy-ma'naviy hayotini boshqarib turadi.

Forobiy faylasuf sifatida ruhiy jarayonlarni insoning aqliy, axloqiy, ma'naviy rivojiga bog`liq holda o`rganishga va talqin etishga harakat qiladi.

Insonga xos bo`lgan va uning ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etuvchi tafakkur va nutqning rivojlanishi ta'lim-tarbiyaning asosini tashkil etuvchi muhim jarayondir.

«Aql – deb yozadi Farobiy – jismlarni bunday xislatlardan holi holda tekshirganda, u faqat jismlarning mohiyati nimadan iborat ekanligini va sezgilardan nimalar mavhumlashtirganini aniqlashga qaratilgan bo`ladi. Jismni u bilan bog`liq bo`lgan belgilardan ajratib oluvchi aql faoliyati shu jismning faqat mohiyatni tekshirish uchun amalga oshiriladi».

Inson aqli, tafakkuri va nutqining fazilatlarini grammatika va mantiq fani o`rganadi. Farobiy xususan, mantiq fanining rivojiga, uning ayrim masalalarini tahlil etishga juda katta e'tibor beradi. Uning ruhiyat va mantiqqa oid fikrlari ta'lim-tarbiya sohasidagi ta'limotning tabiiy-ilmiy, nazariy asoslari bo`lib xizmat qiladi.

Inson tarbiyasi masalasi qadimgi Sharqda, G`arbda, xususan, qadimgi Yunonistonda har doim mutafakkir olimlarning diqqat markazida bo`lib kelgan. Farobiy qadimgi Yunoniston faylasuf. olimlarning merosini o`rganar ekan, Aristotel, Platon, Suqrot, Gallen, Gippokrat, Pifagor asarlari bilan yaqindan tanishdi, ularga sharhlar yozdi, ta'lim-tarbiyada insonning ma'naviy yuksalishiga katta e'tibor berdi. Farobiyning fikricha, insonni tarbiyalash va unga ta'lim berish uzviy birlikda olib qaraladi, ammo ular o`z xususiyatlariga ko`ra bir-biridai farq qiladi.

Farobiy insonni dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakuni deb biladi. Uning asarlarida insonga tarbiya va ta'lim berish

zaruriyati va buning uchun nimaga asoslanishi lozimligi, ta'lim-tarbiya usullari, undan kutilgan maqsad masalalari asosiy o`rinni egallaydi.

Xususan, uning «Baxt-saodatga erishuv haqida»,. «Ideal shahar aholisining fikrlari», shuningdek «Ixso al-ulum». «Aql ma'nolari haqida» nomli asarlarida bu masala keng yoritilgan.

«Baxt-saodatga erishuv haqida» nomli risolasida bilimlarni o`rganish tartibi birma-bir sanab o`tiladi: bilish zarur bo`lgan ilm, bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o`rgangan, tabiiy ilmlarki, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi ilmlarni o`rganish lozim. Undan so`ng, umuman, jonli tabiat – o`simlik va hayvonlar haqidagi ilm o`rganiladi.

«Bundan keyin – deb davom etadi Farobiy,- insonni o`rganishga kirishamiz va insonning inson bo`lishidan kutilgan maqsad va muddaoni o`rganamiz va shuning natijasida nima va qanday narsa ekanligini bilib aniqlab olamiz. Shundan keyin biz insonning hozirgi kamolotga erishuvi sabab bo`lgan narsalarni o`rgana boshlaymiz. Bu narsalar esa xayr-ehsonli ishlar, go`zal insoniy fazilatlar bo`lib, bu fazilatlarni insonni shu kamolotga erishuvidan mahrum qiladigan salbiy xislatlarni ajratib o`tamiz. Bu salbiy xislatlar har turli yomon odatlar, nuqsonlar va bermalol xatti-harakatlarning kelib chiqish sabablarini o`rganishdan avval, shu xulq-atvor, xatti-harakatlarning o`zi bilan tanishib chiqamiz. Mana bu tanishishga madaniy, ya'ni Madinaga (shaharga yoki jamoaga) oid bilimlar deb nom beramiz. Bu ilm shunday xalqlari va shaharlik bo`lmagan xalqlarni o`z ichiga olgan, ya'ni inson olamiga xos bo`lgan barcha xislatlarni o`zida umumlashtirgan odamzod jismdagi har turli a'zolar kabi (umumiy xususiyatlar) kishiga ma'lum bo`ladi». Farobiy «Ixso al-ulum» asarida ham o`rta asrda ma'lum barcha ilmlarni sanab o`tar ekan, madaniy ilmlarni, ya'ni insonning ijtimoiy hayoti to`g`risidagi ilmlarni barcha boshqa ilmlardan – grammatika, logika, matematika, falsafa ilmlaridan so`ng tahlil qiladi va xarakterlab beradi. U barcha ilmlarni ob'ektiv reallikdagi narsa-hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishini tartibga solib chiqishga harakat qiladi.

Farobiy insonni materiya rivojlanishining olib yakuni, so`nggi natijasi, deb tushungani uchun ham insonning ijtimoiy hayoti (madaniy bilimlar adabiyotlarda «siyosiy» yoki «grajdanlik bilimlari» degan nom bilan yuritadi) to`g`risidagi ilmni tabiat to`g`risidagi barcha ilmlarning yakuni, natijasi sifatida talqin etadi.

Farobiy insonning ijtimoiy hayoti haqidagi ilmning vazifasini, xususiyatini quyidagicha belgilandi «Siyosiy ilm ongli faoliyat va hayot yo`l-yo`riqlarining (turli) ko`rinishlarini, shuningdek, urf-odat, axloq, malakalar va tabiiy moyilliklarni ular orqali qo`lga kiritiluvchi maqsadlarni, insonda ularning ifodalanish va vujudga kelish usullarini, ularni boshqarish usullari va saqlab qolish yo`llarini o`rganadi».

Demak, Farobiy grajdanlik ilmiga, asosan, ikki muhim sohani: axloq ilmini (etika) va shaharni, jamoani boshqarish ilmini va siyosiy ilmiy kiritadi.

Inson axloqi to`g`risidagi ta'limot – etika Farobiyning ijtimoiy ta'limotida eng muhim va asosiy o`rinlardan birini egallaydi. Farobiy axloq to`g`risidagi ilmni an'anaga asoslabgina belgilamaydi, sub'sktnv ravishda kelib chiqishini ko`rsatadi va uni «Baxt-saodatga erishuv to`g`risida», «Ideal shahar aholisining fikrlari» asarlarida bu savolga Farobiy shunday javob beradi: «Aql va nafs, - deb yozadi Farobiy «Baxt-saodatga erishuv to`g`risida» degan risolasida, – o`zining cheksiz kamoloti bilan borliqda inson bo`lib gavdalanadi.

Ammo bu boshlang`ichlar odamzodning shu tabiiy boshlang`ichlar ta'siri ostida kamol topib, insonga aylanishi uchun kifoya qilmaydi, chunki inson bo`lib, insoniy kamolotga erishuvi uchun so`zlash va kasb-hunarga muhtojdir.

Ammo, shuni ham aytib o`tish kerakki, nutq insonning kamolga etishuvining yagona sabablaridan biri emasligi ham ochiq-oydin ayondir. Kamolga yetish quruq intilishgina bo`lib qolmasdan, balki tabiatdagi juda ko`p narsalardan foydalanish yo`li bilan yoki shu tabiatdan tashqarida

bo`lgan juda ko`p ishlarni amalga oshirish yo`li bilan qo`lga kiritiladi. Bir kishining o`zi yolg`iz (birovning yoki ko`pchilikning yordamisiz) kamolga yetisha olmaydi. Har bir insonning tug`ma tabiatida va unga lozim bo`lgan har qanday ish va harakat jarayonida boshqa bir inson ko`pchilik bilan munosabatda bo`lish, o`zaro aloqa qilish xosiyati bor, jamiki odamzod ahvoli shu u har qanday kamolotga erishuvida boshqalarning ko`maklashuvlariga va ular bilan birlashishga muhtoj yoki majburdir».

Shu mazmundagi fikr «Ideal shahar aholisining fikrlari» asarlarida yanada aniq ifodalagan, ma`lum xulosaga kelmoq uchun bu fikrni ham quyida keltiramiz: «Har bir inson o`z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko`p narsalarga muhtoj bo`ladi, u bir o`zi bunday narsalarni qo`lga kirita olmaydi va ularga ega bo`lish uchun shunday insonlar jamoasiga ehtiyoj tug`iladiki, bunday jamoaning har bir a'zosi uning ehtiyoji uchun zarur bo`lgan narsalardan birortasini yetishtirib beradi. Shu bilan birga, har bir a'zosi bir-biriga nisbatan xuddi shundan munosabat holatida bo`ladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo`lgan narsalarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o`zaro yordam», deya ta`kidlangan.

Farobiyning bu fikriga insonning tug`ma xislatlari va ijtimoiy hayoti jarayonida vujudga keluvchi ma'naviy xislatlari yoki boyliklari to`g`rsida fikring ham qo`shsak, uning insoniy fazilatlar, ya'ni insonning ijtimoiy mohiyati to`g`risidagi ta'limotining asosiy printsiplari bilan tanishgan bo`lamiz.

«Aristotelning «Kategoriyalar»iga sharhlar» risolasida Farobiy inson ruhida, hozirgi ibora bilan aytganda, insonning ma'naviy hayotida uchraydigan barcha «shakllarni» ikkiga tug`ma shakllarga va ilm-san'at (kasb-hunar), xulq-atvor, xohish va ko`nikma, malakalar yordamida qo`lga kiritiladigan shakllarga ajratadi. Yuqorida bayon etilgan fikrlar asosida Farobiyning insoniy fazilatlar to`g`risidagi ta'limoti haqida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Inson o`z mohiyati bilan ijtimoiydir, ya'ni jamiyatda, o`zaro munosabat, o`zaro jarayonda inson bo`lib yetishadi. Jamiyat insonlarning o`zaro birikuvini yordamida – insonning o`z moddiy ehtiyojlarini qondirishga bo`lgan intilishi natijasida vujudga keladi va jamiyatdan tashqarida, insonlar jamoasidan ajralgan holda, yordamsiz o`z ehtiyojlarini qondira olmaydi.

Insonni boshqa hayvonlardan ustun qilgan narsa uning uchun tabiiy hisoblanuvchi aql va ruhiy quvvatlardir. Inson aqlli va so`zlovchi hayvondir. Lekin kutilgan maqsadlarga erishuv uchun tugma kasb-hunarni, turli ishlarni egallamoq darkor.

Inson o`zining barcha tug`ma qobiliyatlarini yuksak kamolotga erishuvi, yetuk bo`lishi, mukammallikka erishuvi uchun sarf qiladi va bu yo`lda o`zi kurashgan tabiat xodisalaridan foydalanadi, ularni o`ziga bo`ysundiradi, buning uchun ilm-fanni, turli hunarlarni o`rganadi.

Bu xulosalardan inson uchun uning tabiat hodisalaridan foydalanishi, ilm-fan, kasb-hunarni o`rganishi, kamolotga erishuvining yo`l-yo`riq va vositalarini to`g`ri tushunishi va o`zining tug`ma qobiliyatlaridan to`g`ri foydalanishi, boshqalar bilan munosabatda bo`luvi uchun ta'lim-tarbiya nihoyatda zarur, degan fikr mantiqiy ravishda o`z-o`zidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham Farobiy ta'lim-tarbiya masalalariga juda katta e'tibor berib, insoniy fazilatlarga erishuv, oliy maqsad va kamolotga etishuv masalasiga alohida ahamiyat beradi.

Ta'lim-tarbiya inson uchun tabiat hodisalaridan o`z maqsadlari uchun foydalana bilishi va bu yo`lda boshqa kishilar bilan to`g`ri munosabatda bo`lishi, jamiyatning haqiqiy a'zosi bo`lib yetishuvi, uning ichki tartib-qoidalarini to`g`ri o`rganib jamiyat talablariga javob bera oladigan inson bo`lib yetishishi zarur.

Farobiy «Iksa al-ulum» asarida inson bilimi, umumiy dunyoqarashining o`zgarishida tarbiyaning rolini ta'kidlab shunday deydi: «Inson yaxshi tarbiya ko`rmagan va turmushda tajriba orttirmagan bo`lsa, u

ko`p narsalarni nazarga ilmaydi va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga no`rin ko`rinadi... U bilim va tajribaga ega bo`lganidan so`ng fikri o`zgaradi, no`rin bo`yab ko`ringan parsalar zaruriy bo`lib chiqadi».

Farobiyning «Ideal shahar aholi ilmining fikrlari» hamda «Baxt-saodatga erishuv haqida» nomli risolalarida shular to`g`risida fikr yuritiladi, bu risolalar aqliy va axloqiy jihatdan yetuk, ideal insonlar yetishtirish va yetuk, ideal isonlardan iborat ideal jamiyat vujudga keltirish vazifalari bayon qilinadi.

Farobiy ta'lim-tarbiya ishiga kirishish, uni bosh dashtdan avval odamlarning shaxsiy xislatlarini bilish lozimligini aytadi. Insonning xohish, ixtiyor, iroda, yaxshilik va yomonlik kabi xislatlarini, nimaga qobiliyati borligini aniqlamay turib ishga kirishish kutilgan natijani bermaydi.

«Falsafiy savollar va ularga javoblar» risolasida Farobiy iroda va ixtiyorning farqi nimada? degan savolga javob berib, bunday deydi: «Ixtiyor insonning barcha fazilat va qilmishlariga oid tushunchadir. Inson esa mumkin bo`lgan barcha narsalarni bajara oladi. Lekin inson ba'zan mumkin bo`lmagan narsani ham qilgisi kelib qoladi. Masalan, abadiy bo`lgusi keladi (o`lmaslikni xohlaydi). Ixtiyor irodaga nisbatan umumiyroqidir, chunki inson nimaiki qilsa, o`z irodasi bilan qiladi, ammo u barcha xohlagan, ixtiyor qilgan narsani qila olishga qodir emas.

Farobiy inson faoliyatini baholash uchun qo`llaniladigan axloqiy mezonlar yaxshilik va yomonlik o`rtasidagi tafovutlar haqida fikr yuritar ekan, ularni insonning ma'lum ruhiy holati va tarbiya natnjasida vujudga keluvchi ma'lum ma'naviy xislatlari bilan bog`laydi:

Bundan yana insonning kuchlari, qobiliyatlari harakatlari haqida so`radilar. U aytdi: insonga uning o`z oldiga qo`ygan maqsadlarini amalga oshirishga, uning maqsadlarini amalga oshirishga xalaqit beruvchi kuchlarni, qobiliyatlari va o`rgangan ixtiyoriy harakatlari inson yomonligidir va aksincha, insonnnng o`z oldiga qo`ygan maqsadlarning amalga oshirishga yordam beruvchi kuchlari, qobiliyatlari va o`rgangan

ixtiyoriy harakatlari inson yaxshiligidir. Yaxshilik va yomonlikning farqi shu bilan belgilanadi».

Farobiyning «Baxt-saodatga erishuv haqida» nomli risolasidagi pedagogika – ta'lim-tarbiyaning vazifa va metodlariga oid fikrlari haqida ma'lum xulosa chiqarishdan avval, ular xususida izchil tasavvurga ega bo'lish uchun ulardan ayrimlarning to'liq keltirishni lozim ko'rdik.

Farobiy insoniy quvvatlar va ularning vujudga kelishi hamda tarbiyaning ahamiyati haqida to'xtab, bunday deb yozadi:

«Zarur bo'lgan narsani iroda yordamida ijod etuvchi va kashf etuvchi quvvat – fikriy quvvatdir».

Kashf etilgan narsa eng chuqur o'rganilgan va o'z vujudiga bizni namoyon qilgan bo'ladi. Narsalarni o'rganmoqchi bo'lganimizda va ularni ijod etishda hatto ular (ichida) shundaylari uchraydiki, ular, ehtimol, chindan ham xayrli, ehtimol, zararli yoki xayronligi gumon narsa bo'ladi. Agar shu o'rganilgan va kashf etilgan narsalar nihoyat darajada foydali bo'lsa demak, ular go'zal va yaxshi harakatimiz natijasidir, agar bordi-yu, ular nihoyat darajada zararli bo'lib chiqsa, demak, fikrlash natijasida kelib chiqqan bu narsalar zararli, qabih va buzuvchi harakat hamda ishlarning natijasidir. Bordi-yu, o'rganiladigan narsa, demak, shu narsalar deb gumon qilinsa, demak shu narsani qo'lga kiritishga qaratilgan ish-harakatlar ham xayrli deb qabul etiladi.

Fikriy quvvatlar mana shu yaxshi-yomonlik e'tibori bilan ikkiga bo'linadi – fikriy quvvat, fikriy razillik quvvati. Fikriy razillik quvvati shundan iboratki, u bilan o'taketgan zararli narsalar ixtiro etiladi. Shuning uchun bu fazilatni fikriy fazilat deb emas, balki keyingi nom bilan – fikriy razillik deb atash kerak.

Fikriy fazilat yordamida sodir bo'ladigan narsa,. kashf va ixtironing sifatiga qarab, o'taketgan foydali va go'zal bo'lishi mumkin. Chunki, odatda, go'zal va manfaatli ish-harakatning o'zi ham yaxshi fazilatdir, o'taketgan foydali narsa esa g'oyatda go'zal hamdir.

Mana bu fikriy fazilat madaniy (ya'ni ijtimoiy) fikriy fazilatdir.

Fikriy quvvat ham qismlarga bo`linadi, masalan, fikriy fazilat natijasida vaqti-vaqti bilan bir yangilik (hodisa) yoki eng go`zal va foydali biron narsani kashf etuvchi quvvat mana shu quvvatlar jumlasidandir.

Inson shu quvvat yordamida eng go`zal va foydaliroq hamda juda yaxshi bir narsa kashf etishi mumkin.

Kimdagi eng go`zal va foydali kashf etish fazilatiga ega bo`lsa, kashf etgan narsasi chindan ham o`z istagiga va boshqa birovning istagiga muvofiq yoki boshqalarning xohishiga muvofiq deb gumon qilinsa, kashf yoki ijod etilgai narsa haqiqatan xayrli va foydalidir. Chunki kasb-hunarga yaqin tutgan kashfiy quvvat fikriy fazilatning muddaosi insonga foydali narsalar ixtiro etishidadir. Shuning uchun fazilatni o`rganganda eng kuchli bo`lgan komil fazilatni yoki hamma fazilatlarni o`z ichiga olgan tugal fazilatni tanlash va o`rganish kerak.

Ba'zan shunday bo`ladiki, ma'lum (kasb-hunar) fazilati boshqa hamma fazilatlarnng eng kuchlisi va mukammali bo`ladi. Bu shunday ulug` fazilatki, inson unga erishish uchun boshqa hamma fazilatlarini: ijodiy faoliyati, tug`ma fazilatini ham ishga solishi kerak.

Bu fazilatlarning raisidir. Odam mana shu fazilatni boshqa o`zining juz'iy, tug`ma fazilati bilan takomillashtiradi.

Farobiy insonning ijtimoiy mohiyatini chuqur his etgan holda, unda ta'lim-tarbiya jarayonida tug`ma fazilatlarning rivoj topishi bilan birga, ijtimoiy muhit yangi fazilatlarni ham vujudga keltirishi mumkinligini bir necha bor qayd etadi. Muhit ta'siri izchil tarbiya yordamida vujudga keluvchi fazilatlar ichida kasb-hunarni, san'atni o`rganish, ilm egallash inson uchun hal etuvchi rol o`ynaydi.

Farobiy hunarmandchilik, umuman, biror foydali ishga o`rganishni ma'lum san'atni egallash deb hisoblaydi.

Farobiy o`z fikrini davom ettirib, shunday deydi: «Insonda ma'lum kasb-hunar fazilati raislik qiladi va mazkur (yoki kasb hunar) shunday

san'atki, uni yuzaga chiqarish uchun muvofiq tushadigan hamma harakatni, demak, hamma san'atlarda bo'ladigan usul va harakatlarni qo'llamasdan ilojimiz yo`q. Demak, bu san'at insondagi barcha san'atlarning boshlig`i; kasb-hunar fazilatlari ichkda eng kuchlisi, quvvatda ham boshqa hamma san'atlarning kuchlirog`i. Uni amalga oshirishga yordam beruvchi tug`ma fazilat esa quvvatda hamma tug`ma fazilatlarning eng zo`ri va kattasidir.

Endi insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilatiga kelsak bu fazilat tug`ma emasdir, aks holda uning fikriy fazilatida mutlaqo kuch va ulug`lik bo`lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug`ma bo`lganda, podsholar podsholikni o`z irodalari yordamida qo`lga kiritmas edilar, balki podsholik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo`lgan, tabiat talab qilgan tabiiy bir majburiyat bo`lib qolar edi».

Agar insonda go`zal fazilatlar birlashsa, uyg`unlashsa, shundan so`ng u o`zidagidek fazilat va irodani xalqlar va shahar ahllarida hosil qilish yo`lini o`rganish kerak. Lekin xalqlar va shahar ahllarida axloq, odob, rasm-rusm, kasb-hunar, odat va iroda hosil qilish uchun insondan zur kuch va qudrat talab qilinadi.

Bu ikki yo`l bilan, ya'ni ta'lim va tarbiya yo`li bilan hosil qilinadi. Ta'lim degan so`z kishilar nazariy fazilatni birlashtirsa, tarbiya esa shu kishilar o`rtasidagi tug`ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so`zdir. Ta'lim faqat so`z va o`rganish bilangina bo`ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, ya'nn shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo`lgan ish-harakat, kasb-hunarga o`rganishdir. Agar ular, shu kasb-hunarga berilgan bo`lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni kasb-hunarga butunlay jalb etsa, demak, shu kasb-hunarni chinakamiga egallaydilar.

Yoshlar yuqorida aytib o`tilgan ko`nikmalarni kasb-hunar, ish tajriba, kasb va g`ayratga ega bo`lish orqali asta-sekin mukammal egallay boshladilar hamda nazariy bilimlarni mantiqiy fikrlash yo`li bilan kamolga erishdilar.

Shundan keyin bu fazilatlardan birini juz'iy, raislikka aylantiradilar va bola etti yoshdan o`n sakkiz yoshga yetguncha bu fazilat juz'iy raislik martabasidan asta-sekin yuqorilasha borib, so`ngra bu fazilatni oliy martabali rais (ya'ni eng ustun fazilat) holiga ko`taradilar». Demak, Farobiy ta'lim berish va tarbiya berishni bir-biridan farq qiladi. Ta'lim so`z bilan, bir narsani uqtirish, o`rganish bilan amalga oshiriladi, yoshlar nazariy bilimlarni shu ta'lim yordamida egallaydilar.

Tarbiya esa amaliy faoliyatda namoyon bo`ladi, yoshlarga u, ma'lum ish-harakat, kasb-hunar, odob orqali singdiriladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida nazariy bilim bilan amaliy harakat-odat, malaka, faoliyat birlashib boradi, yetuklik shu birlashuvning darajasiga qarab yuzaga keladi.

Ta'lim berishda, Farobiyning ta'biricha, bu yoshlarni nazariy bilimlarga, falsafiy ilmlarga o`rganish, ular aqlini barcha fanlarnng asoslari bilan boyitish nazarda tutiladi. Tarbiyalashda esa, yoshlarga ma'naviy axloqiy qoidalar, xulq-odob normalari, amaliy san'at, ya'ni turli hunar o`rgatiladi, ular ongiga faoliyat tartiblarini singdirish asosiy maqsad qilib qo`yiladi, Ta'lim ham, tarbiya ham yoshlarning haqiqiy inson bo`lib yetishuvi uchun nihoyatda zarurdir".

Farobiy insonlar xulqiga ijobiy xislat va fazilatlarni singdirishga qaratilgan izchil maqsadni amalga oshiradigan, tarbiyani amalga oshirib borishga katta e'tibor beradi. Shu bilan birga, Farobiy ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi yoki ta'lim oluvchi shaxsga yakka holda yondashuvni, uning tabiiy, ruhiy va jismoniy xislatlarini nazarga olish zarurligini ta'kidlaydi. U bu haqda shundan yozadi: «Bu barcha tabiiy xislatlarki, ularni oliy kamolotga yetkazish shu yoki kamolotga yaqin bo`lgan darajaga ko`tarishga xizmat qiluvchi vosita yordamida tarbiyalashga muhtojdir. Insonlar turli ilm, hunar faoliyatga moyilligi va qobiliyatligi bilan tabiatan farq qiladilar. Teng tabiiy xislatlarga ega bo`lgan odamlar esa o`z tarkibiy (malakalari) bilan tavofut qiladi.

Tarbiyasi jihatdan teng boʻlganlar esa, bu tarbiya natijalarining turlichaligi bilan bir-birlaridan farq qiladilar».

Tarbiya jarayoni, Farobiy fikricha, tajribali pedagog, oʻqituvchi tomonidan tashkil etilishi, boshqarilib turilishi va maʼlum maqsadlarga yoʻnaltirilishi lozim, chunki «har bir odam ham baxtni va narsa-hodisalarni oʻzicha bila olmaydi. Unga buning uchun oʻquvchi lozim».

Farobiy taʼlim-tarbiya berishning metodlari ustida toʻxtab, shunday yozadi: «Amaliy fazilatlar va amaliy sanʼatlar (kasb-hunar) va ularni bajarishga odatlantirish masalasiga kelganda, bu odat ikki turli yoʻl bilan hosil qilinadi: birinchi yoʻl qanoatbaxsh soʻzlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi soʻzlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, olamdagi gʻayrat, kasb-intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi yoʻl (yoki usul)—majbur etish yoʻlidir. Bu usul gapga koʻnmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroi xalqlarga nisbatan ishlatiladi. Chunki ular oʻz istaklaricha, soʻz bilan gʻayratga kiradiganlardan emasdir. Ammo ulardan qaysi biriki, nazarini bilimlarni oʻrganishga astoydil kirishsa hamda fazilati yaxshi boʻlib, kasb-hunarlarini va juzʼiy sanʼatlarni egallashga intilishi boʻlsa, bunday odamlarni majbur etmaslik, maqsad ularni fazilat egasi qilish va kasb-hunar ahllariga aylantirishdir».

Tarbiya berish usuli, Farobiy fikricha, ikki turli boʻladi. «Avvalgi usul – sanʼatni oʻz ragʻbatlari bilan oʻrganuvchilarga ishlatadigan usul. Ikkinchi usul esa majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul. Bolalar ustida turgan odam esa muallim boʻlib, u bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usulidan foydalanadi».

Bu keltirilgan fikrlar shuni koʻrsatadiki, Farobiy insonni har tomonlama mukammal qilib yetishtirish vazifalariga va bu yoʻlda foydalaniladigan taʼlim-tarbiya usullari vositalariga juda katta eʼtibor beradi. U, avvalo, taʼlim berish bilan tarbiyalash oʻrtasidagi tafovutlarni yaxshi tushunadi, taʼlim va tarbiya berish usullarini ajratadi:

tarbiyalanuvchining xarakteri, xohish, intilishlariga, ruhiy mayllariga karab ta'lim-tarbiya asta-sekin tushuntirish, anglatish yo`li bilan olib boriladi yoki majbur etish, chora ko`rish, mo`ljallangan maqsadga bo`ysundirish va unga yo`naltirish yo`li bilan olib boriladi. Bu har ikkn usul bir maqsadni – yetuk va mukammal insonni yetishtirishni nazarda tutadi. Farobiy ta'lim tarbiyada bu usullar bilan cheklanmaydi.

Farobiy o`z asarlarida tarbiyaning barcha turlari, inson yetukligining barcha tomon va belgilari to`g`risida, ya'ni jismoniy, aqliy-axloqiy va estetik tarbiya to`g`risida ham fikr yuritadi.

Masalan, Farobiy bilimdon, ma'rifatli, yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bundan deydi:

«Har kimki ilm-hikmatini o`rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog`-salomatligi yaxshi bo`lsin, yaxshi axloq va odobli bo`lsin, so`zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo`lsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo`lsin, ilimli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real, moddiy narsalar to`g`risida bilimga ega bo`lsin».

Bu fikrlardan Farobiyning ta'lim-tarbiyada, yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda, xususan, aqliy va axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor berganligi ko`rinib, uning e'tiqodicha, bilim, ma'rifat, albatta, imon, yaxshi axloq bilan bezatilmog`i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo`lib yetishmaydi. «Daraxtning yetukligi uning mevasi bilan bo`lganidek, insonning barcha xislatlari ham axloq bilan yakunladi.

2.2. Alisher Navoiy asarlari yosh avlod tarbiyasining asosiy vositasi sifatida

O`zbek xalqining ulug` farzandi va yuksak ma'rifatparvari Alisher Navoiy (1441-1501) XV asrda – temuriylar davrida yashab, ijod qildi.

Alisher Navoiy maktabdor yoki mudarris bo`lib dars bergan bo`lmasa ham, ta'lim-tarbiya ishlarida juda katta xizmatlar qildi. Mashhur tarixchi Xondamir Navoiyning yoshlarga bilim berish va ularni tarbiyalash uchun katta imkoniyatlar tug`dirganini bunday tasvirlaydi: "...Atoqli olimlar va hurmatga loyiq bo`lgan san'at ahllarining darajalarini ko`tarishda va martabalarini oshirishda qo`ldan kelgan qadar harakat qilib, bunday ishlarga ahamiyat berdi. O`quvchilar faqat o`qish bilan mashg`ul bo`lishlari uchun ularga nafaqa tayin etib, madrasalar bino qildi". Alisher Navoiy yosh avlodlarning ilm-hunar egallashini va eng yaxshi insoniy fazilatlarga ega kishilar bo`lishini orzu qiladi.

Alisher Navoiy ilmiy va adabiy faoliyatda ham, ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlarida ham o`zidan oldin o`tgan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug`bek va boshqa mutafakkirlar an'anasini davom ettirdi va boyitdi. Uning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g`oyasi markaziy o`rinda turadi. Navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir.

Alisher Navoiy o`z dostonlarida Farhod, Qays, Iskandar va boshqa ijobiy obrazlarning tarbiyalanish, ta'lim olishda bosib o`tgan yo`llarini, kamolotga yetish bosqichlarini batafsil tasvirlaydi. U bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuch va qudratiga alohida e'tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi o`sishiga ishonadi.

Yosh bola yaxshi nima-yu, yomon nimaligining farqiga bora olmaydi, chunki uning tushunish, fikrlash, muhokama qilish qobiliyati o`smagan bo`ladi. Shu sababli, u o`z xususiyatiga ko`ra, biron salbiy ta'sir natijasida yaramas, noto`g`ri yo`lga tushib ketishi mumkin. Chunki Navoiyning ta'biricha:

Tufuliyat ayyomi yo`qtur shuur,

Erur tab' royu xiraddin nufur.

Ul ayyom erur lavhg`a muqtazi,
Xatog`a dog`i sahvq`a muqtazi.
Nedinkim xiradg`a chu yo`q dastras
Erur nafs da'b havou havas.

Bolaga yoshligidan tarbiya bermasa, yigitlik davrida ham yomon yo`lga tushib ketishi mumkin. Alisher Navoiy odamning o`smirlik va yigitlik davrini ta'riflab, bunday deydi:

Tufuliyat o`tgachki bo`ldi shabob,
Xirad nuri soldi dumog` ichra tob.
Kishining bu vaqt ikkidur holati,
Erur aqli yo nafsining quvvati.
Agar aqliga quvvat o`ldi fuzun,
Bo`lur yaxshi ishlar sori rahnamun. (Xamsa, 733-bet.)

Demak, bolani juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq darkor. Tarbiya insonga o`zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi.

Alisher Navoiy tarbiyaning kuchiga e'tibor berish bilan birga, kishining qanday odam bo`lib voyaga yetishiga ta'sir ko`rsatadigan boshqa omillarni ham unutmadi. Navoiyning fikricha, jamiyatdan, odamlardan ajralib, yakkalanib qolgan va ularning ta'siridan tashqarida bo`lgan kishi inson qatoriga kira olmaydi, hunari ham yo`q kabidir. Chunki yolg`iz kishi dunyodan bahra topa olmaydi, hayoti yemiriladi.

Alisher Navoiy, odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa, kishilarning bir-birlariga bo`lgan ruhiy, ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi deb ta'kidlaydi. Odam tarbiya va ijtimoiy muhit ta'siri bilan yaxshi yoki yomon, Navoiy iborasi bilan aytganda, munosib yoki nomunosib bo`lishi mumkin. Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandarning Faylaqus tarbiyasi natijasida dono davlat arbobi va olim bo`lib yetishganligini hikoya qilib deydi:

Skandarki donoyi ofoq edi,

Bilik ichra ofoq aro toq edi. (Xamsa, 659-bet)

Alisher Navoiy bu bilan, odamni voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri – tarbiya ekanligini uqtiradi. Navoiyning fikricha, yaxshi ta'lim va tarbiya olgan har bir kishi Iskandar kabi bo`lmog`i mumkin. Buning uchun aslzoda va shaxzoda bo`lish shart emas:

Elga sharaf bo`lmadi johu nasab,

Lek sharaf keldi, hayovu, adab.(Xamsa, 71-bet)

Demak, kishining chinakam insonligi, uning nasl-nasabida, aslzoda bo`lishida emas, balki imonli, tarbiyali va hayoli bo`lishidadir, kishilar haqiqiy insonlikka tarbiya va ta'lim yo`li bilan erishadilar.

Alisher Navoiyning fikricha, tarbiyaning maqsadi-yosh avlodni xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlarga ega kishi qilib yetishtirishdir. Navoiy injiq, qov, yomon xulqli bolalarni ham tarbiya va o`qitish yo`li bilan tuzatish mumkinligiga ishonch bildiradi. Navoiy jamiyatdagi ayrim axloqiy jihatdan nuqsonli kishilarni qayta tarbiyalash zarurligini qayd etgan bo`lsa ham, lekin yaramas, fosiq, xalqqa zarar keltiruvchi odamlarni tarbiyalash yo`li bilan tuzatib bo`lmasligini aytadi.

“Qobilg`a tarbiyat qilmoq zulumdur va noqobilg`a tarbiya qilmog` hayf. Ani adami bila zoiy qilma va munga tarbiyatingni zoyi qilma” (Mahbubul qulub, 71-bet).

Navoiy tarbiya ta'siriga berilmaydigan, xalqqa musibat keltiruvchi fosiqlarga shavqatsiz bo`lish kerak va ularni tarbiyalash bilan inson qatoriga qo`shib bo`lmaydi, deb uqtiradi:

Nokasu nojins avlodin kishi bo`lsin debon,

Chekma mehnatkim, latif o`lmas kasofat olami,

Kim kuchuk birla xo`tukka necha qilsang tarbiyat,

It bo`lur, dog`i eshshak, bo`lmaslar aslo odami. (Xamsa, 73-bet)

Demak, nokas, vijdotsiz va fosiqlarga haqiqiy kishilik xislatlarini singdirib bo`lmaydi.

Bola, asosan, oilada tarbiya oladi. Bolani qaysi yoshdan maktabga berish lozimligini Navoiy ochiq aytmasa ham, lekin uning o`zining ham, adabiy asarlaridagi qahramonlarining ham qaysi yoshda maktabga berilganligini bilamiz. Oilada olgan tayyorgarligi bilan maktabda o`qiy boshlagan Alisher 6 yoshida Qur'oni Karimning "Taborak" bobigacha o`qiganini mashhur tarixchi Sharafiddin Yazdiyga hikoya qiladi.

Navoiyning fikricha, har bir ota-ona o`z farzandiga yoshligidan ta'lim berishi, maktabda o`qitishi lozim:

Qilmoq erur biri muallim talab,

Qilg`ali ta'lim anga ilmu adab. (Hazoyinul maoniy, 709-bet)

Alisher Navoiy yosh avlodga beriladigan bilim va tarbiyani bir-biriga bog`lab olib borishini, bolaga yaxshi tarbiya berish va odob o`rgatishni ta'kidlaydi:

Topting chu ayol yaxshilik etkurgil,

Urgal adabu yaxshi qiliq o`rgatgil.

Har necha adab bo`lsa qattig` etkurgil,

Xayliga adab qilib saboq etkurgil.

"Nomunosib el"lar – boshqalar mehnati evaziga yashovchi, aysh-ishrat va kayf – safo qiluvchi odamlardir. "Munosib el" – o`z mehnati bilan kun ko`ruvchi, jamiyat manfaati uchun sadoqat bilan ishlovchi, xalq baxt – saodati uchun kurashuvchi sof vijdonli kishilaridir. Bular – sofdil, insofli, kosiblar, dehqonlar, hunarmandlar, san'atchilardir. Alisher Navoiy hunar ahlini ulug`laydi, barcha sof vijdonli odamlarning manfaatlarini himoya qilib, ularning ilg`or qoidalarini tashviq etadi. Masalan, u kosiblar to`g`risida bunday deydi:

Kosib, ganji kofi zar olginj erur,

Ikki qo`li mezoni diram sanji erur. (Nazmul javohir, 85-bet)

Mazmuni: "Kosiblarning oltin oluvchi xazinasi ularning qo`lidadir. Tanga o`lchov tarozisi esa yana shu qo`llardadir".

Alisher Navoiy mehnatni baxtli hayot manbai deb biladi. Jamiyatning boyligi ham mehnatda ekanini ta'kidlaydi. U inson hayotida mehnat muhim ahamiyat kasb etishini aytib, “yuk chekmoq ila kishiga zebolik erur”, deydi. Demak, mehnat kishini kamolotga yetkazadi. Shu sababli ham alloma o`z asarlarida ijobiy qahramonlarni mehnatsevar, mehnatni hurmat qiladigan kishilar sifatida tasvirlaydi.

Navoiy reja bilan, aql bilan halol mehnat qilishni maslahat beradi, mehnat bilan oila, yurt obod bo`lishini aytadi. Navoiy mehnatsiz rohat bo`lmasligini shunday ta'riflaydi:

Mehnat aro har kimki, tahammul yo`q anga,

Tarvijga mutlaqo taxayyul anga. (Aforizmlar, 46-bet)

Mazmuni: “Kimki mehnatga chidamsiz bo`lsa, ishining rivoj topishini xayolga ham keltirib bo`lmaydi”.

Navoiy “Hotam Toyi” hikoyasida halol mehnat bilan kun kechirishni birovning minnat bilan bergan har qanday boyligidan afzal ko`radi. Navoiy odamlarni, binobarin, yoshlarni ham mehnatni puxta qilishga, ishni o`z vaqtida bajarishga da'vat etadi:

Aylar ishingga chu bo`lur dast ras

Vaqtidan o`tkarma oni bir nafas (Xamsa, 138-bet).

Shoir odamlarni baxtli hayot yo`liga da'vat etadi:

Xushdurur bog`i koinot guli,

Barchadin yaxshiroq hayot guli. (Xamsa, 562-bet)

Navoiyning fikricha, inson uchun toj, davlat emas, balki eng yaxshi fazilatlar unga ziynatdir. Eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir:

Oltin, kumush etma davlat kunidin,

Kim tortar adab ulusin davlat tunidin,

Gar yo`qtur adab ne sud oltun unidin,

Elning adabi xushroq erur oltunidin. (Nazmul javohir, 6a-bet)

Jamiyatning a'zosi bo'lgan har bir odam o'z xalqiga xizmat qilishi, yordam berishi, foyda keltirishi, xalq manfaatini yuqori qo'ymog'i, xalq uchun, vatan uchun foyda ekanligini unutmazligi kerak.

Naf etkurmakka shoir oylading,

O'zungga ul nafni yor aylading.

Nafing agar xalqqa beshak durur,

Bilki, bu naf o'zingga ko'prak durur. (Xamsa, 102 - bet)

Alisher Navoiy xalqqa ish bilan ham, so'z bilan ham, ko'ngil bilan ham foyda keltirish kerakligini aytadi, xalq manfaati uchun ishlaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy odam deb biladi:

Odami ersang demagil odami,

Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami. (Xamsa, 104-bet)

Alisher Navoiyning insonga muhabbati vatanga muhabbati bilan bog'langan. Navoiy el-yurtning obod, farovon, mustaqil bo'lishini va unda insonlarning do'st-yor, ahil, hur yashashini istaydi. Navoiy odamlarni vatanni sevishga da'vat etadi, vatan tuyg'usi naqadar kuchli ekanini – kabutar haqidagi hikoyasida ifodalaydi:

“Bir tez uchar kaptar bor edi. U qanot qoqib ucha boshlaganda juda balandga ko'tarilib, uzoq-uzoqlarga uchar edi. Kunlardan bir kun u bir shohning tuzog'iga ilinib qoladi. Tuzoq qili qanotiga ko'p shikast yetkazgan edi. Ko'p yillar qafasda azob chekib, nola qilib yotadi. Bir kun u bechora zindondan qutulib qochib, shodlik va xursandchilik bilan sayrab, osmonga parvoz qilib, o'z makoni tomon yo'l oladi.

Bu muborak qush g'ayrat bilan uchib, necha kunlik yo'lni bir damda bosib o'tdi. Lekin zamon zulmi ko'p o'zgarishlar yasab, buning turadigan uyasini xarob qilgan edi. O'z joyini topolmasa ham, lekin uchishdan to'xtamadi. Nihoyat, u o'z uyasini topadi”:

Bass davr urub ehtiyot aylabon,

Buzug' uzra qo'ndi nishot aylabon,

Ki ma'nus erur garchi vayrondur,
Netay shoh qasrinki, begonadur.
Erur qushg`a xushroq chu boqsang ayon,
Murassa' qafasdin tikon oshyon. (Xamsa, 807-808-betlar)

Navoiy insonlarni milliy, irqiy va diniy ayrimlaridan qat'iy nazar, bir-birlari bilan do`st bo`lib, ahillik bilan yashashga da'vat etadi. Navoiyning ta'kidlashicha, odamlar bir-birlari bilan do`st va hamjihat bo`lib yashamaganlaricha, o`z orzu-niyatlariga yeta olmaydilar. Yakkalik yolg`izlik bilan hech qanday ish qilib bo`lmaydi. "Yolg`iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham, dong`i chiqmas" degan xalq maqolida ifodalanganidek Navoiy ham:

Bir kishi andoq kishi kim, bir kishi,
Tuzg`ay aning birla muvaddat ishi.
Har kishi olamda erur yorsiz,

Bir sadafdur, duri shahrvorsiz, - (Xamsa, 81-bet) deydi va odamlarni bir-birlariga yordam berishga, bir-birlarini qo`llab-quvvatlashga, xursandchilik, shodlik va qayg`u-alamlilik kunlarida o`zaro hamdard bo`lishga undaydi.

Alisher Navoiyning axloqiy qarashlarida vafodorlik ham alohida o`rinda turadi. Shoir vafoni chin inson ziynati deb biladi va bunday ta'riflaydi:

So`rsa otin ahli safo javhari,
Oh chekib deki, vafo gavhari.
Bu duri noyob vafomi ekan,
Gar ul emas, mehri giyomi ekan.
Mehri giyo demakki, ankor ul,
Javhari fardu, duri yaktodir ul. (Xamsa, 80-bet)

Farhod o`z o`limi oldidan vafodor do`sti Shopurni esga olib deydi: "Sen menga hamdam bo`lib, ne qonlar yutmading, menga sirdosh bo`lib ne qayg`ular tortmading. Menga hamdam bo`lganingdan boshlab balolarga,

motamlarga yo`liqding. Vafo qilishning qoidayu sharti shunchalik bo`ladi. Men-ku olmadim, tangri senga mening uchun uzi aytsin”.(Xamsa, 46-bet)

Alisher Navoiy o`z ijodiy faoliyatida axloq, odob masalasiga alohida e'tibor beradi. Ulug` shoir axloq, odobning mohiyati haqida shunday deydi:

“Adab – kichik yoshdagilarni kattalar duosiga sazovor etadi va duo barakati bilan umrdan bahramand qiladi. Adab kichiklar mehrini ulug`lar ko`ngliga soladi va u muhabbat ko`ngilda abadiy qoladi; yoshlarni ko`zga ulug` ko`rsatadi, ularning yurish-turishini xalq ulug`vor biladi: odamlar tomonidan bo`ladigan hurmatsizlik eshigini bekitadi, bog`laydi va kishini hazil-mazaxdan va kamsitilishdan saqlaydi, kishi tabiatini insonlik yo`liga soladi va odam mijoziga odamgarchilik manzilida orom beradi; kichiklarga undan muncha natija hosil bo`lgach, kattalarga allaqancha bo`lishini ko`rarsan.

Adab muhabbatga bezak va pardozi beradi, adab tarkidin do`stlikning ravnaq va bahosi ketadi. Adab va tavozi' do`stlik ko`zgasini yarqirataadi, ikki tomondan yorug`lik yetkazadi”. (Mahbubul qulub, 43-bet).

Navoiyning fikricha, odob-odamning olijanob fazilatlaridan biridir. Odobli kishi ochiq yuzli, xushmuomala, yoqimli bo`ladi. Bunday kishilar uchun ikki yuzlamachilik, qo`pollik yotdir. Odobli odam doimo hurmat va izzatda bo`ladi. Ota-ona, aka-uka, opa-singilni, do`stlarni hurmat-izzat qilmoq – har bir odobli kishining burchidir.

Alisher Navoiy laganbardorlikni, xushomadgo`ylikni eng yomon xislat deb biladi. Ota-onalarni o`z bolalarini, yosh avlodni chin insonga xos bo`lgan eng yaxshi fazilatlar egasi qilib tarbiyalashga da'vat etadi.

Alisher Navoiy o`z ijodida odamlarni karamli, saxovatli va himmatli bo`lishga undaydi va yoshlarni ham shunday fazilatli qilib tarbiyalashga da'vat etadi. Navoiy el-yurtga, xalqqa, muhtojlarga yordam berishni eng yuqori karam hisoblaydi.

“Karam, - deydi Navoiy, – bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko`tarmoq va uni o`sha qiyinchilikdan qutqarmoqdir. Karam-birov mashaqqat tikani og`irligini ko`tarmoq va u tikan uchidan guldek ochilmoq va o`sha qilingan ishni qaytib tilga keltirmaslik, og`izga olmaslik, ishiga minnat qilmaslik va uning yuziga solmaslikdir”. (Mahbubul qulub, 55-bet).

Alisher Navoiy odamlarni insofga, imon-e'tiqodli, saxovatli va adolatli bo`lishga, bir-birlari bilan ahil bo`lishga, bir-birlariga yordam berishga, karamli bo`lishga da'vat etar ekan, ehsonli bo`lishni alohida uqtiradi. Ulug` mutafakkir ehsonni ulug`lab shunday deydi: “Ehson degan sifatni abadiy saodat bil... kishilik bog`ining kungilga yoqar daraxti ehsondir. Barcha maqbul sifatlar va ma'qul holatlar ehsonga qarashlidir va bu sifat va holatlarni u o`z ichiga olgan hamda shuning o`zida voqedir. U barcha yaxshiliklarni o`zida to`plagan va bari yaxshiliklar haqiqatan unga tegishlidir”. (Mahbubul qulub, 52-bet).

Mutafakkirning fikricha, imon-e'tiqod va yaxshilikni o`ziga maqsad qilib olgan odam baxtli bo`ladi. Bunday odamlar saxiy va himmatli bo`ladilar. “Saxiylik kishilik bog`ining hosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir, odamgarchilik o`lkasining to`lqinli daryosi, balki u to`lqinli daryoning asl gavharidir”. (Mahbubul qulub, 54-bet).

Alisher Navoiy saxiylikni xalqqa, davlatga faqat mol-mulk bilan emas, balki o`zida bo`lgan imon-e'tiqodi, kuchi, bilimi bilan ma'naviy yordam berish kerakligini aytadi. Shoir saxiylik himmatli bo`lish bilan bog`liqligini uqtirib: “Saxiylik odamning badanidir, himmat uning joni: himmatlilardan dunyoga yuz ming kushoyish bo`lar, himmatsiz kishi er sonida emas, jonsiz badanni kishi tirik emas”, - deydi. (Mahbubul qulub, 54-bet).

Alisher Navoiy kishilarning, binobarin, yoshlarning ham jismoniy jihatdan baquvvat, sog`lom, epchil, chaqqon bo`lishlariga alohida e'tibor etadi.

Alisher Navoiy do'stlarni hurmat qilishni, dushmanga rahmsiz bo'lishni mardlik, qahramonlik deb biladi. Shoirning ta'kidlashicha, mard odam maqtanchoq bo'lmasligi kerak. "qaysi kishi, agar mardlik nishonasiga ega bo'lsa, u o'zining ming turli qilgan ishlaridan birini ham aytmaydi". (Xamsa, 118-bet).

Alisher Navoiyning ta'lim-tarbiya xususidagi qarashlari u yaratgan badiiy obrazlarda ifodalangan. Ulug' shoir o'zining ta'lim va tarbiyaga oid fikr-mulohazalari bilan pedagogika faniga kattagina hissa qo'shadi, uning insoniy fazilatlar to'g'risidagi fikrlari hozirgi davrimiz uchun ham muhimdir.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Ma'lumki, Sharq mutafakkirlari ijodida yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llangan usul va vositalar, tadbir shakllari, milliy urf- odat va an'analar, tarbiya haqidagi g'oyalar mujassamdir. Bu g'oyalar ulug' mutafakkir olimlarimizning ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan asaralarida bayon etilgan. Bu ulug' allomalar o'zlaridan oldin o'tgan avlodlar donishmandligini kelgusi avlodlarga taqdim etdilar.

Sharqning buyuk allomalari kichik maktab yoshi xarakteridagi ahloqiy belgilarning shakllanishi juda murakkab jarayon ekanligini azal-azaldan ta'kidlab kelingan. Ularning bu sohadagi hayotiy tajribalari, ilmiy-amaliy kuzatishlari, shuningdek, bugungi kundagi pedagog va ruhshunos olimlarning tadqiqotlari jam bo'lib, shaxsning axloqiy fazilatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hali maktab bo'lmagan, pedagogika fan sifatida shakllanmagan davrlardayoq, qabila a'zolarining bolalar tarbiyasi sohasida orttirgan tajribalari hayotiy tajriba mevasi sifatida bizning davrga qadar yetib keldi. Axloqiy fazilatlar, imon-e'tiqod, do'stlik, birodarlik, mardlik, vatan va xalqqa sodiqlik g'oyalari ota- onalarning o'zaro ahilligi, ular bilan farzandning o'zaro mehr – muhabbati, qadr-qimmatini, insoniy fazilatlar Sharq mutafakkirlari asarlarida tarannum etildi. Bu asarlar yoshlarni ma'naviy-axloqiy, imon-e'tiqodli va vatanparvar qilib tarbiyalashda muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

**III Bob. Boshlang`ich sinf o`quvchilarida imon-e'tiqod
tushunchasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan
foydalanish texnologiyasi va uning samaradorlik darajasi.**

3.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida imon - e'tiqod tushunchasini shakllantirishda oila va maktab hamkorligi va uni amalga oshirishning shakl va usullari

Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, shakllanib kelayotgan shaxsda imon-e'tiqod axloq, odob munosabatlarini yanada yaxshilash, shaxsda oilaviy va ijtimoiy hayotda imon- e'tiqodlilik, oddiylik va halollik, xushmuomalalik va rostgo'ylik kabi ma'naviy-axloqiy insonlarga xos bo'lgan sifatlarni yanada takomillashtirish asosida Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish davrimizning eng muhim istiqbolli rejalaridan hisoblanadi.

Kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixidan ma'lumki, bola shaxsining kamoloti oilada shakllanadi.

Oila jamiyat hayotini olg'a suruvchi, uni yanada yuksak bosqichlarga ko'tarib ravnaq toptiruvchi, kelajak avlodlarni tarbiyalab yetishtiruvchi, kamol toptirish uchun mas'ul bo'lgan g'oyat muhim tarbiya maskani hisoblanadi.

Jamiyatimiz taraqqiyoti o'zining rivojlanish qonuniyatlariga asoslangan holda shaxs yetukligini ta'minlovchi va tarbiya samaradorligini oshiruvchi omillarni vujudga keltirish talabini qo'ymoqda. Shu bilan birga respublikamiz taraqqiyoti bilan oila, uning barcha hayotiy bosqichlari jiddiy o'zgarishlarga uchrayotganligini ham esdan chiqarmaslik kerak. Oila erkaklar va ayollarning to'la teng huquqligi, oila uchun bab-baravar javobgarligi asosida quriladi. Biroq, yangi oilani vujudga keltirish, unda bolalar tarbiyasini amalga oshirish oddiy jarayon emas. Bu murakkab jarayon bo'lib, uning o'ziga xos muammolari mavjud.

Respublikamiz moddiy texnika bazasining rivojlanishi o'z navbatida oilaning moddiy va ma'naviy kamolotiga, bu esa, o'z navbatida oiladagi bolalar tarbiyasiga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi. Mehnatkashlarning

turmush sharoitlarining muttasil yaxshilanishiga, farovonlashishiga olib keladi.

Oiladagi daromadlarning oshishi, bir tomondan, ota-onalarning bilim saviyalari va madaniy hayotlarining yaxshilanishiga sabab bo`lsa, ikkinchi tomondan, oila a'zolarining yuqori ma'naviy ehtiyojlarining ijobiy shakllanishiga, oilaviy munosabatlarning takomillashuviga, boyishiga, kattalar va kichiklar orasidagi muloqot mazmuniga ijobiy ta'sir ko`rsatmoqda. Shu sababdan bo`lsa kerak, respublikamizning, jamoatchilikning diqqat-e'tibori oilalarni mustahkamlash, yangi oilalarning qaror topishi va shakllanishiga qaratilmoqda. Chunki yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash davr talabiga aylanib bormoqda.

Oila va oilaviy tarbiya muammolari ichida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish va ularga umumiy tarbiyaga oid bilim berish davrimizning dolzarb masalalaridan biridir. Oilalarni pedagogika yutuqlari bilan tanishtirish ularning mustahkamligini ta'minlash davr talablaridan biridir. Ikkinchi tomondan esa, bu o`z navbatida, bolalarning tarbiyasida tegishli shakl va uslublarni takomillashtirish yo`llaridan hisoblanadi. Shuning uchun ham ota-onalarni, oilalarni tarbiyaga oid bilimlar bilan, tarbiya uslublari bilan qurollantirish nihoyatda zarur.

Tarbiyaga oid bilim berish muammosi faqat ota-onalarning ishi bo`lib qolmasdan, balki barcha insonlarga xos bo`lgan ishdir. Respublikamiz qarorlarida ta'kidlanganidek, barcha tashkilotlar, mehnat jamoalari, umuman jamiyat axloqiy sog`lom, ma'naviy boy, mustahkam oilani vujudga keltirish to`g`risida, onalar haqidagi, mamlakatning kelajagi bo`lgan yoshlar haqidagi g`amxo`rlikni kuchaytirishi zarur. Ota-onalarning bolalar tarbiyasi haqidagi, ularni turmushga va mehnatga tayyorlash to`g`risidagi mas'uliyatini oshirish zarur.

Jamiyatimizdagi har bir to`laqonli shaxs bolalarning tarbiyachisi bo`lishi, yangi insonni har tomonlama kamol toptiruvchi barcha holatlarda, shart-sharoitlarda ishtirok etishi lozim. Har bir yigit-qiz bo`lajak ota-

onalardir. Shu sababli jamiyatimiz ularning qanday oila qurishlariga befarq qarab turolmaydi. Respublikamiz bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalash vazifalarini, oilalarning mustahkamligi uchun qo'yilayotgan talablar insonlarning tarbiyaviy ma'lumotini oshirish zaruriyatini ko'tarib chiqmoqda. Bu masala hozirgi kunda har qachongidan ham muhimdir.

Atoqli pedagoglar tarbiyani maqsadga muvofiq tashkil etish sharoitlaridan biri ota-onalarning tarbiyaviy savodxonligida, deb hisoblagan edilar. 1899 yildayoq onalar va ayollarni tarbiyachilik ishiga tayyorlash, ularni tarbiyaning mezon va uslublari yuzasidan o'qitish zaruriyati ko'tarib chiqilgan edi. Faqat tarbiyaga oid bilimlarni targ'ib qilish orqaligina oilaviy tarbiya bilan ijtimoiy tarbiya uyg'unligini ta'minlash mumkin. Bu ishlarni amalga oshirishda mahalliy shart-sharoit, o'lka materiallari va nihoyat tarbiyaga oid jurnallar, gazetalar va ularda bosilgan tarbiyaga oid mavzulardagi maqolalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ota-onalarni tarbiyaga oid va psixologik bilimlar bilan qurollantirmasdan turib oilada tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish mumkin emas. Demak, oila hayotini tarbiyaviy jihatdan to'g'ri tashkil qilish uchun o'qituvchilar, keng jamoatchilik pedagogika fani orqali aholiga yordam berish, ota-onalarga tarbiyaviy bilim berish tizimni ishlab chiqishlari lozim.

Pedagog olimlar tadqiqotlarida isbotlanganidek, oilada boalalarning axloqiy tarbiyasiga doir ishlar quyidagi sharoitlarda bajarilsa, uning samaradorligi yanada oshadi:

1. Maktab o'zining barcha: ta'sirlari majmuini oilaviy tarbiya jarayoniga izchil yo'naltira olsa;
2. O'qituvchilar jamoasi oila bilan o'zaro hamkorligi davrida o'zlarining etnik-pedagogik tarbiyaviy talablarini to'g'ri tashkil eta olsalar;
3. Xalq maorifi bo'limi va muassasalar tashkilotchi ota-onalarni tarbiyaviy jarayonga torta olsalar;

4. O`qituvchilar tomonidan oilaviy tarbiyaga rahbarlik bolalar maktabga kelmasdan oldin boshlansa va bu ish ularning barcha o`quv yillarida davom ettirilsa;

Bu masalalarni ijobiy hal qilishda shahar, tuman ijroiya qo`mitalari va xalq ta'limi bo`limlarining tarbiyaviy imkoniyatlari kengayayotgan paytdagi ta'siri hozirgi kun nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Demak, mamlakatimizda umumiy ta'limni sifat jihatidan tubdan yangilash asosida yoshlarni har tomonlama kamol toptirish uchun aholiga tarbiyaviy bilim berishni har qachongidan ham yuqori saviyaga ko`tarish bizning muqaddas burchimizdir.

Oilaning ijtimoiy kuch-quvvati uning tarbiya berish imkoniyatlarida ijtimoiy faol insonni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ekanligini hammamiz bilamiz. Lekin bila turib hamma vaqt ham bu imkoniyatlardan foydalana olmaymiz yoki tarbiya berishda o`zimiz sezmaganda xatolarga yo`l qo`yamiz.

Kuzatishlar shuni ko`rsatmoqdaki, ota-onalarga tarbiyaga oid umumiy ta'lim berishda yechimini kutayotgan muammolar ham ko`p. Shu sababli ularni bir yo`la yo`qotib bo`lmaydi. Tarbiyaviy umumiy ta'limning samaradorligi ko`p jihatdan va asosan, barcha mehnatkashlar ommasining bir maqsad asosida birlashishlariga, bu borada xalq ta'limi muassasalariga, o`qituvchilar jamoalarining yetakchilik qilishlariga hamda tashkilotchilarga bog`liq. Amalda nima bo`lmoqda? Amalda esa bu masalalar bilan faqat xalq ta'limi organlari va o`quv yurtlari shug`ullanmoqdalar. Madaniyat, sog`liqni saqlash, adliya, pedagogika jamiyati xodimlari, zavod, fabrika, jamoa xo`jaligi ishchi va xizmatchilari bu ishga deyarli jalb qilinmagan. Tarbiyaviy umumiy ta'lim tizimiga hali barcha tarbiyasi qiyin o`smirlarning ota-onalari jalb etilmagan va hokazo.

Tadqiqotlar shuni ko`rsatmoqdaki, umumiy o`rta ta'lim saviyasining pastligi past malakali shaxslarning, vujudga kelishiga, bu esa o`z navbatida o`sib kelayotgan shaxs ongida imon- e'tiqod tushunchasini butunlay

yo`qolib ketishiga va aksincha yomonlashishiga, ma'naviy dunyosining g`ariblashishiga, madaniy boyliklardan ma'lum darajada bebahra qolinishiga, shuningdek, ularni o`zlashtirish qiyinchiliklarini yuzaga chiqarmoqda. Shularga asoslanib, bolalarning ta'lim va tarbiya taraqqiyoti saviyasiga ko`ra quyidagi omillarga:

- a) ota-onalarning savodxonligiga
- b) bolalari uchun tarbiyaning qaysi turlarini mukammal egallaganligiga;
- v) oiladagi bolalar soniga;
- g) oilada ota yoki onaning borligiga yoki birortasining yo`qligiga;
- d) ota-onalarning ma'lumoti, kasbiga;
- e) oilaning moddiy ta'minlanishi va xokazolarga bog`liq deb ayta olamiz.

Hozirgi kunda respublikamizning ko`pgina shahar va qishloqlarida bolalarga imon-e'tiqod tarbiyasini berishda va tarbiyaga oid bilimlarni targ`ib qilishda quyidagi shakllardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

Aholi uchun ochilgan tarbiya madaniyatini targ`ib qiluvchi xalq institutlaridan; xalq maorifi tomonidan yasli, bog`cha va maktablarda ochilgan ota-onalar institutlaridan jamoatchilik asosida ishlovchi oliy o`quv yurtlari qoshida ochilgan ota-onalar fakultetidan; ota-onalar lektoriysi; seminarlar, kurslardan; tarbiyaviy huquqiy bilimlar maktablaridan maktab yoshidagi bolalarning ota-onalari uchun tarbiyaviy va meditsina maslahatxonalardan; pedagogika va bolalar ruhiyatga doir masalalarni o`rganuvchi to`garaklar va boshqalardan.

Agar ota-onalarga umumiy tarbiyaviy bilim berishda olimlarning tavsiyalari, oilaviy tarbiyaga doir xalq pedagogikasi tajribalari, shahar, tuman, qishloq, mehnat jamoalari, shuningdek mehnat va urush faxriylarining maslahatlari, tavsiyalariga tayanilsa, so`zsiz bu ishning samaradorligi oshadi.

Oiladagi tarbiyaviy sharoitni yaxshilash yoshlar tarbiyasi samaradorligini oshirishga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Albatta, bunda oilaning ruhiy muhiti, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari asosiy va hal qiluvchi rol o'ynaydi. Maktab, sinf, o'rtoqlari va barcha muloqot manbalariga nisbatan oilada aniq tarbiyaviy omillarga amal qilinsa, nazorat ostiga olinsa, tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'ladi.

Ota-onalarning bolalar tarbiyasiga doir o'z bilimlarini doimo oshirib borishlari, tarbiyada talabchanlik, ota-ona va katta yoshdagi kishilarning o'zaro ahilligi, kichiklarga g'amxo'rlik oilaviy tarbiya asosini tashkil etadi. Busiz oilaviy tarbiyada muvaffaqiyatga erishish mumkin emas.

Ikkinchi tomondan, har bir oilada bola tarbiyasi, yuzasidan aniq bir maqsad bo'lishi kerak. Eng muhimi, yosh avlod tarbiyasiga ota-ona yoki aka-uka, opa-singil sifatidagina emas, balki jamiyatning haqiqiy fuqorasi sifatida ham e'tibor berish, yoshlarni mazmunli kelajagimizga ishonch va sadoqat ruhida tarbiyalash zarur.

Bola hayot haqida, yaxshilik yoki yomonlik, foydali yoki zararli tushunchalarni birinchi navbatda oilada ota-onasi, aka-ukasi yoki opa-singillaridan oladi. Agar bog'cha, maktablarda tarbiyachi, o'qituvchi bolalarga ta'lim bersa, tarbiyalasa, ota-onalar faqat tarbiyalab qolmay, balki ular bilan birga yashaydilar ham. Binobarin, ular bolalarga ta'sir ko'rsatishning ko'p imkoniyatlariga egadir.

Tarbiyaning samaradorligi bolalarning tarbiyasi uchungina sarflangan vaqt bilan o'lchanmay, balki oilaning ijtimoiy hayot bosqichi bilan, ota-onalarning obro'si va ularning axloqi bilan aniqlanadi. Bunda ota-onalarning, katta yoshdagi kishilarning bola tarbiyasi yuzasidan burch mas'uliyatini chuqur his qilishlari yetakchi mezondir. Aniqroq qilib aytganda, oila davrasida kattalarning, xususan, ota-onalarning imon-e'tiqodliligi, ijobiy-munosabatlari bolalarni to'g'ri tarbiyalashning birlamchi va zaruriy shartidir.

3.2. Boshlang`ich sinf o`quvchilarida imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanish bo`yicha oilada va maktabda olib borilgan tajriba- sinov ishlari va ularning natijalari

Boshlang`ich sinf o`quvchilarida imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanish mavzusi bo`yicha tadqiqot ishining yakunida tajriba- sinov ishlari tashkil qilindi va o`tkazildi. Tajriba-sinov ishlari Sergeli tumanidagi 301- umumiy o`rta ta'lim maktabi va 300 - Davlat ixtisoslashgan maktablarning boshlang`ich sinflarida olib borildi.

Tadqiqot natijalarini sinovdan o`tkazish maqsadida mavzu yuzasidan tajriba-sinov dasturi ishlab chiqildi. Uning mazmunida tajriba-sinov ishlarining borishi, belgilangan maqsadni amalga oshirish hamda tajriba-sinov xulosalarini qayd qilish yo`llari o`z ifodasini topdi.

Tadqiqot doirasida tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdan avval kichik yoshdagi maktab o`quvchilarida imon-e'tiqod tarbiyasini shakllantirishga samarali ta'sir etuvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish maqsad qilib qo`yildi.

Nazarda tutilayotgan vazifalarning ijobiy hal etilishi quyidagi omillarga bog`liq deb hisoblaymiz:

1. Kichik yoshdagi maktab o`quvchilarida imon-e'tiqod tarbiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi sharq mutafakkirlarining asarlaridan foydalanishning mavjud holatini o`rganish.

2. Boshlang`ich sinf o`qituvchilarida imon-e'tiqod tarbiyasini shakllantirishga oid Sharq mutafakkirlarining asarlaridan foydalanish borasidagi ehtiyojni qaror toptirish.

3. Boshlang`ich sinf o`qituvchilarida va ota- onalarda, oila a'zolarida imon-e'tiqod tarbiyasi borasida bilim, ko`nikma hamda malakalar hosil qilish.

4. Kichik yoshdagi maktab o`quvchilarida imon-e'tiqod tarbiyasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlarining asarlaridan foydalanishga doir mashg`ulotlar mazmuni va metodikasini ishlab chiqish, ularni muntazam takomilashtirib borish.

Bolalarda imon-e'tiqod tarbiyasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlarining asarlaridan foydalanish muammosini tadqiq etish doirasida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi tamoyillar asoida yo`lga qo`yildi va ijobiy natijalarga erishildi:

- tajriba-sinov ishlarini o`tkazilishidan ko`zlangan maqsadni aniqligi;
- tajriba-sinov ishlarini tashkil etishga nisbatan texnologik yondoshuvning qaror topganligi;
- respondentlarning psixologik va fiziologik xususiyatlari, shuningdek, ularning xohish-istaklari hamda qiziqishlarni hisobga olish .

Bolalarda imon-e'tiqod tarbiyasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlarining asarlaridan foydalanishga yo`naltirilgan faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish borasidagi shakl, uslub, vositalarning to`g`ri va maqsadga muvofiq tanlanishiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Tajriba-sinov ishlarida boshlang`ich sinf o`qituvchilari, ota-onalar bilan davra suhbat, seminar, munozara treningi, konferentsiya, seminarlar tashkil etilishi muammoning yechimini ta'minlashda asosiy omillardan ekanligiga ishonch hosil qilindi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarida imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanishning bugungi ahvolini o`rganish maqsadida boshlang`ich sinf o`qituvchilariga imon-e'tiqod va uni boshlang`ich sinf o`quvchilarida shakllantirishda qanday vositalardan foydalanishlarini o`rganish maqsadida anketa-so`rov savolnomalarini ishlab chiqdik. So`rovnoma savollari quyidagicha bo`ldi:

1. Imon deganda nimalarni tushunasiz?
2. E'tiqod nima? Uni qaysi yoshdan boshlab shakllantirish zarur?

3. Imon-e'tiqod insoniy fazilatlardan qaysilarini o'z ichiga qamrab oladi?

4. Pedagoglik faoliyatingizda imon-e'tiqod tushunchasini bolalarda shakllantirishda ko'proq qanday vositalardan foydalanasiz?

5. Hozirgi kunda boshlang'ich sinf darsliklariga kiritilgan xalq og'zaki ijodi janrlarida va Sharq mutafakkirlarining qaysi asarlarida imon-e'tiqod tushunchasini uchratdingiz?

6. Imon axloqiy tarbiyaning asosi xisoblanishi mumkinmi va nima uchun?

7. Bolalarda imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirish maqsadida qanday ishlarni amalga oshirgansiz?

8. Boshlang'tich sinf o'quvchilarida imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirish bo'yicha ota-onalar bilan suhbatlar tashkil qilganmisiz?

9. O'z ish faoliyatingizda Sharq mutafakkirlarining ijodidan foydalanasizmi?

10. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirish maqsadida yana qanday ishlarini amalga oshirish zarur deb o'ylaysiz?

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanishning bugungi ahvolini o'rganish maqsadida boshlang'ich sinf o'quvchilariga imon-e'tiqod tushunchasini qay darajada bilishlarini o'rganish maqsadida anketa-so'rov savolnomalarini ishlab chiqdik. So'rovnoma savollari quyidagicha bo'ldi:

1. Odobli- axloqli bola deganda qanday bolalarni tushunasiz?

2. Ota-onalaringiz tomonidan aytib beriladigan ertak, rivoyat, afsonlarda imon degan so'zni uchratganmisiz?

3. Uyda ota-onalaringiz tomonidan imonli bo'linglar degan so'zlar aytib boriladimi?

4. Maktabda o'qituvchingiz tomonidanchi?

5. Imonli bola deganda qanday bolalarni tushunasiz?
6. Sharq mutafakkirlari kimlar ular haqida qanday ma'lumotga egasiz?
7. Sharq mutafakkirlaridan qaysi birlari haqida to'liq ma'lumotga egasiz?
8. O'zingizni darsliklaringizga Sharq mutafakkirlaridan qaysi birlari kiritilgan.
9. Imonli bolalar Vatanparvar, insonparvar, mehnatsevar, odobli bolalar bo'ladilar. O'zingizda shu fazilatlarni hosil qilish uchun qanday ishlarni qilishingiz zarur?

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanishning bugungi axvolini oilalarda o'rganish maqsadida ota-onalarga imon-e'tiqod va uni boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirishda qanday vositalardan foydalanishlarini o'rganish maqsadida anketa-so'rov savolnomalarini ishlab chiqdik. So'rovnoma savollari quyidagicha bo'ldi:

1. Imon deganda nimalarni tushunasiz?
2. E'tiqod nima? Uni qaysi yoshdan boshlab shakllantirish zarur?
3. Imon-e'tiqod insoniy fazilatlardan qaysilarini o'z ichiga qamrab oladi?
4. O'z oilangizda farzandlar tarbiyasida imon-e'tiqod tushunchasini bolalarda qanday usullar yordamida shakllantirasiz?
5. Oila a'zolaringiz o'rtasida xalq og'zaki ijodi janrlari va Sharq mutafakkirlarining asarlari o'rganib, muhokama qilinadimi?
6. Imon axloqiy tarbiyaning asosi hisoblanishi mumkinmi va nima uchun?
7. Bolalarda imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirish maqsadida oilangizda qanday ishlarni amalga oshirgansiz?
8. O'z farzandingizda imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirish bo'yicha sinf o'qituvchisi bilan suhbatlar tashkil qilganmisiz?

9. Ota-onalik mas'uliyatingizda Sharq mutafakkirlarining ijodidan foydalanasizmi?

10. Oilada bolalar tarbiyasida imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirish maqsadida yana qanday ishlarni amalga oshirish zarur deb o'ylaysiz?

Berilgan so'rovnoma savollarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining va ota-onalarning ko'pchiligi bolalarga imon-e'tiqod tarbiyasini berish bo'yicha faqatgina, bir-ikkita Sharq mutafakkirlarining nomlarini sanab o'tish bilan cheklandilar. Biz tajriba-sinov davrida bolalarda imon- e'tiqod tushunchasini Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida shakllantirish bo'yicha dars va darsdan tashqari holatlarda mashg'ulotlar, tarbiyaviy tadbirlar, tarbiyaviy soatlar tashkil qildik va uning natijalarini tajriba-sinov oxirida tahlil qilib bordik.

□	Mezonlar	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
		O'qituvchilarda r soni	yuqori	o'rta	past	O'qituvchilarda r soni	yuqori	o'rta	past
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1.	O'qituvchilarning Sharq mutafakkirlarining asarlarini o'rganishga ehtiyojlarini borligi	30	16	10	4	30	8	10	12
2.	O'qituvchilarning bolalarga Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida imon-e'tiqod tarbiyasini berish bo'yicha qisqacha ma'lumotlarga ega ekanliklari	30	15	10	5	30	6	14	10
	O'qituvchilarda Sharq mutafakkirlari asarlari	30	12	13	5	30	8	12	10

3.	vositasida imon-e'tiqod tarbiyasini shakllantirishga oid ko`nikma, malaklarning shakllanganligi								
4.	O`qituvchilarda Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida imon-e'tiqod tarbiyasini shakllantirish va o`rganish bo`yicha ijodiy yondoshuvning mavjudligi	30	15	10	5	30	6	10	14

Mazkur jadvaldan ko`rinib turibdiki, bizning boshlang'ich sinf o`qituvchilarida imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanishning bugungi ahvolini o`rganish bo`yicha amalga oshirgan ishimiz o`zining ijobiy natijalarini bergan. Tadqiqot ishlarining oxirgi bosqichida tajriba-sinov guruhi o`qituvchilarining tadqiqot mavzusi yuzasidan nazorat guruhi o`qituvchilariga qaraganda bilim, ko`nikmalari ancha oshgan.

Uchinchi bob bo`yicha xulosa

Dunyoda necha millat, necha xalq bo`lsa, hammasining o`ziga xos turmush tarzi, o`tmish hayoti va kelajagi bilan chambarchas bog`liq an'analari mavjuddir. O`zbek xalqining ham urf-odatlarini, turmush tarzi, oilaviy marosimlari, ta'lim-tarbiya, madaniyat an'analari moziyning uzoq-uzoq asrlariga borib taqaladi. Barg ildizdan quvvat oladi deganlaridek, hozirgi va kelajak avlod kishilarining ularni chuqur bilishi ma'naviyatining mag`zi to`qligi omildir. Bu – hamisha, hamma avlod tomonida e'tirof etilgan haqiqatdir. Kaykovusning “qobusnoma”sidan tortib, Al-Xorazmiy, Abunabr al Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning nazmiy va nasriy asarlarida, Yusuf Xos Hojibning “qutadg`u bilig” (“Baxt keltiruvchi bilim”), Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq” (“Haqiqat sovg`alari”) kabi jahonga mashg`ur asarlarida, Navoiyning, o`lmas

she'riyatida, Munis Xorazmiyning “Savdita'lim”, qori Niyoziyning “Hayot maktabi”, Abdulla Avloniyning “Guliston yozud axloq” asarlarida Sharq xalqlari, xususan, o`zbek xalqiga xos bo`lgan ibratli tomonlar ochib berilganki, ular qalami orqali xalqimizga xos bo`lgan ota-onani hurmatlash, insoniylik, oqibat, mehr-shafqat, mehmon-do`stlik, ma'rifatga chanqoqlik, onani (ayolni) ulug`lash, farzandga mehrlil va fidoyi bo`lishlik kabi fazilatlar dunyoga tanilgan bo`lsa, ajab emas.

Yosh avlodni axloq- odob, imon-e'tiqod, mehnatsevar, insonpavar insonlar qilib tarbiyalashda yuqorida nomlari zikr etilgan sharq mutafakkirlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan rivoyat, hikoyatlarning o`rni beqiyos ekanligini unutmasligimiz zarur.

UMUMIY XULOSA

Taraqqiyotning har qanday bosqichlarida ham katta avlod vakillari kenja avlod vakillari uchun yordam qo`llarini cho`zib, imkon qadar, o`z to`plagan bilim va tajribalarini sevimli mashg`ulotlariga bo`lgan munosabatlarini yoshlarga ham tinmay o`rgatib, tadrijiy bog`lanishni vujudga keltirdi. Natijada yoshlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga bo`lgan intilish kuchayib, bu hol odatiy bo`lib boradi. Agar xalq og`zaki ijodi

janrlarini va Sharq mutafakkirlarimiz tomonidan meros sifatida qoldirilgan nodir asarlarni sinchiklab o`rganadigan va ularni har birini ko`rib tanishadigan bo`lsak, haqiqatan ko`zingiz quvnaydi, balki bu qalbingizga ma'naviy yetuklik, imon-e'tiqodlilik va barkamollik tuhfa etadi.

Ma'lumki, yosh avlodni ma'naviy qiyofasi ijtimoiy borliqdagi ko`plab hodisalar bilan aloqadordir. Uning yanada murakkabligi shundaki, bu bog`liqlik har doim ham bir xil va tushunarli emas. Shunisi qiziqki, faqat xato va kamchiliklargina emas, balki ijtimoiy hayotdagi ijobiy siljishlar ham agar ular o`z vaqtida hisobga olinmasa, shaxs tarbiyasidek nozik ishda qator qiyinchiliklar va murakkabliklarni keltirib chiqarishi tabiiy.

Sharq mutafakkirlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan asarlarda bolalarni imon-e'tiqodli qilib tarbiyalash masalasiga, ularni hayotda hallollik, poklik, odamgarchilik kabi fazilatlar asosida tarbiyalash masalasi birinchi o`ringa qo`yilganligini guvohi bo`lamiz.

Demak, yosh avlod shuuriga imon-e'tiqod tarbiyasini berishda Sharq mutafakkirlarining asarlaridan o`z o`rnida ko`proq foydalanilsa, yoshlarga beriladigan tarbiyaning ham ta'sirchanligi oshadi.

Yuqoridagi fikrlar va tadqiqot ishi yuzasidan olib borgan kuzatishlarimiz natijasida quyidagi xulosalarga keldik.

1. Boshlang`ich sinf o`quvchilarida imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanish ta'lim-tarbiya ishlarini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Uning muvaffaqiyati ko`p jihatdan boshlang`ich sinf o`qituvchilari faoliyatlariga va otalarning maktab bilan hamkorligiga bog`liq.

2. Boshlang`ich sinf o`quvchilarida imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanish masalasi qoniqarli emas. Uning nazariya va amaliyotdagi ahvolini o`rganish shuni ko`rstadiki, mutaxassislar mazkur muammoga yetarlicha e'tibor bermayaptilar. Buning natijasida boshlang`ich sinf o`qituvchilari va ota-

onalar boshlang`ich sinf o`quvchilarida imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanish to`g`risida yetarlicha bilimga ega emas. Buning asosiy sababalaridan biri mazkur muammo bo`yicha yetarli qo`llanma va tavsiyalar, didaktik materiallarning yetarli darajada yaratilmaganligidadir.

Tadqiqot va tajriba-sinov ishlarining natijalariga tayangan holda boshlang`ich sinf o`quvchilarida imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanishga yo`naltirilgan faoliyat samaradorligini ta'minlashga oid quyidagi ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Maktab rahbarlari va o`qituvchilari mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti davrida boshlang`ich sinf o`quvchilarida imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanish dolzarb muammo ekanligiga yanada e'tiborni qaratishlari va bu borada Sharq mutafakkirlarining asarlari bolalarda imon-e'tiqod tarbiyasini shakllantirishdagi roli katta ekanligini hisobga olib mazkur masalaga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

2. O`qituvchilar boshlang`ich sinf o`quvchilarida imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanishning shakl va uslublari haqida yetarlicha tasavvurga ega bo`lishlari kerak.

3. Ko`tarilgan muammo yuzasidan metodik tavsiyalar tayyorlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g`risida»gi qonuni. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. «Sharq» nashriyoti. Toshkent, 1997 y.

2. O`zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. «Sharq» nashriyoti. Toshkent, 1997 y.

3. Karimov I.A. O`zbekiston kelajagi buyuk davlat. «O`zbekiston» nashriyoti. Toshkent, 1992 y.
4. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga javoblar. 1998 y. 2-son.
5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. «Muloqot» jurnali, 1998 y. 5-son.
6. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. -Toshkent, 1999 y.
7. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: A.Qodiriy, 1993 y.- 226 b.
8. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 3-jild. «Fan» nashriyoti, Toshkent, 1966 y.- 665 b.
9. Abdurahimova D. «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish». Ped.fan.nom.ilm.dar. olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent, 1998 yil.
10. Axloq-odobga oid Hadis namunalari. «Fan» nashriyoti, Toshkent, 1990 y, 49-b.
11. Axloq-odobga oid Hadis namunalari. «Fan» nashriyoti, 1990 y, 24-bet.
12. Axloq-odobga oid Hadis namunalari. «Fan» nashriyoti, 1990 y, 37-bet.
13. Axloq-odobga oid Hadis namunalari. «Fan» nashriyoti, 1990 y, 47-bet.
14. Axloq-odobga oid Hadis namunalari. «Fan» nashriyoti, 1990 y, 77-bet.
15. Axloq-odobga oid Hadis namunalari. «Fan» nashriyoti, 1990 y, 20-bet.
16. Axloq-odobga oid Hadis namunalari. «Fan» nashriyoti, 1990 y, 30-bet.

17. Abdullaev X. Etnopedagogika 1-qism. Farg`ona: FDU, 1994 y, - 127-b.
18. Abdullaev X. Etnopedagogika 2-qism. Farg`ona: FDU, 1994 y. «Axloqiy qadriyatlar». qo`qon. 1993 y.
19. Afzalov.M.I. «O`zbek xalq ertaklari haqida». «Fan» nashriyoti, Toshkent, 1964 y, 40-b.
20. Ajdodlar o`giti. Toshkent, 1991 y, 154-b.
21. Bobolardan-bolalarga (to`plovchi Barakaev R), Toshkent, «Yulduzcha» nashriyoti, 1989 y. 125-b.
22. Baratov N., Aliqulov X. O`rta Osiyo mutafakkirlari axloq haqida. «O`zbekiston» nashriyoti, Toshkent, 1974 y, 48-b.
23. Bahodirov O. Yangicha an'ana va urf-odatlar hayotga. «O`zbekiston» nashriyoti, Toshkent, 1985 y, 42-b.
24. Valieva N. «Halollik va sofdillik nima?». Risola. Toshkent, 1968 y.
25. Vohidov M. Bolalar psixologiyasi. «O`qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1976 y.
26. «Gulxan» jurnali, 1995 y, 5-son, 26-27-b.
27. «Donishmandlar odob-axloq to`g`risida». «O`qituvchi» nashriyoti, 1986 y.
28. Donishmandlar tarbiya xususida. Toshkent. 1982 y, 168-b.
29. Dono Alisher. Alisher Navoiy haqida xalq afsonalari. Toshkent, 1964 y, 80-b.
30. Dono Alisher. Alisher Navoiy haqida xalq afsonalari. Toshkent, 1964 y, 30-b.
31. Dono Alisher. Alisher Navoiy haqida xalq afsonalari. Toshkent, 1964 y, 60-b.
32. Durdonalar xazinasi. Hikoyatlar, masallar, rivoyatlar, nasihatlar, hikmatlar, latifalar. Toshkent, 1999 y, 130-131-b.

33. Durdonalar xazinası. Hikoyatlar, masallar, rivoyatlar, nasihatlar, hikmatlar, latifalar. Toshkent, 1999 y, 80-b.
34. Jumanazarov U. O`zbek folklori va tarixiy voqelik. «Fan» nashriyoti, Toshkent, 1991 y.
35. Jahongirov G'. «O`zbek bolalar folklori». Risola. Toshkent, 1973 y, 10-b.
36. Jahongirov G`. «Bolalar ertaklari». «O`zbekiston» nashriyoti, Toshkent, 1972 yil, 15-16-b.
37. Ziyomuhamedov B. Ma'rifat asoslari. «O`zbekiston» nashriyoti, 1998 y.
38. Ziyomuhamedov B. Ilm hikmati. «Abu Ali Ibn Sino» nomidagi tibbiyot nashriyoti, Toshkent, 1999 y.
39. Zunnunov A. «Inson kamolotining asosi yoki xalq pedagogikasining manbalari haqida». Ma'rifat. –1992 y. 20 fevral.
40. Zunnunov A. «O`rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar». «O`qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1995 y.
41. Inson odobi (Turmush. Muhabbat. Madaniyat). Toshkent, 1988 y, 233-b.
42. Ibragimov L. «Yangi urf-odatlarimiz». Toshkent, 1965 y.
43. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. «O`zbek xalq poetik ijodi». «O`qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1990 y.
44. In'omova M. «Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi». «Fan» nashriyoti, Toshkent, 1999 y.
45. In'omova M. «Farzand-nihol, ota-ona–bog`bon». «O`qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1993 y.
46. In'omova M. «Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari». Ped.fan.dok.ilm.dar. olish uchun taqdim etilgan diss. Toshkent, 1998 yil.
47. Isroilova Sh. «Milliy qadriyatlar». Maktabgacha tarbiya, 1992 y, № 3.

48. Ishnazarov U. «O`zbek folklori va tarixiy voqelik». «Fan» nashriyoti, Toshkent, 1991 y.
49. Ibrohimova Z. «Maktabgacha tarbiya muassasalarida Navoiy va Bobur hayoti va ijodini o`rganish (metodik tavsiya)». Toshkent, 1993 y.
50. «Inson odobi». Toshkent, 1998 y, 187-b.
51. «Inson odobi bilan». Toshkent, 1978 y, 40-b.
52. Yo`ldoshev J.G`. «Ta'limimiz istiqboli yo`lida». «Sharq» nashriyoti, Toshkent, 1996 y.
53. Yo`ldoshev X. «Mehnat - tarbiya vositasi». «O`qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1989 y.
54. Yo`ldosheva R. «O`zbek xalq o`yinlarining tarbiyaviy ahamiyati». «O`qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1992 y.
55. Murodov M. «Mehribon farzand baxting bahoring». «Muloqot» jurnali, 1998 y, 5-son, 58-b.
56. Murodov M. «Kamtarga kamol». «Gulxan», 5-son, 1985 y, 27-b.
57. Murodov M. «Do`stlik oltindan qimmat». «Gulxan» jurnali, 1986 y, 3-son, 10-b.
58. Mutafakkirlar axloq haqida. Toshkent, 1995 yil, 40-b.
59. Ma'naviyat yulduzlari. Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar. Toshkent, 1999 y, 395-b.
60. Mahkamov U. «Axloq - odob saboqlari». «Fan» nashriyoti, Toshkent, 1994 y.
61. Mahmud Sattor. «O`zbek udumlari». «Fan» nashriyoti, Toshkent, 1993 y.
62. Mirtursunov Z. «O`zbek xalq pedagogikasi». «Fan» nashriyoti. Toshkent, 1973 y.
63. Mirzaev I. «Boshlang`ich sinflarda xalq og`zaki ijodini o`rganish». «O`qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1979 y.
64. Musurmonova O. «Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi». «O`qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1996 y.

65. Musurmonova O. «Oila ma'naviyat-milliy g`urur». «O`qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1999 y.
66. Munavvarov K. «Oila pedagogikasi». qo`llanma. Toshkent, 1994 y, 17-b.
67. Nishonova S. «Milliy qadriyatlar va barkamol inson tarbiyasi» Xalq ta'limi, 1997 y, № 3-18-19-b.
68. Nishonova S. «Sharq uyg'onish davri pedagogik taraqqiyotida inson tarbiyasi». Ped.fan.dok.ilm.dar. olish uchun taqdim etilgan diss. Toshkent, 1998 yil.
69. Navoiy A. «Mahbub-ul-qulub». G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1993 y.
70. Navoiy A. «Hayrat - ul - Abror». «Fan» nashriyoti, Toshkent, 1979 y, 29-b.
71. Navoiy A. «Layli va Majnun». «Fan» nashriyoti, 1962 y, 70-b.
72. Navoiy A. «Xamsa». Toshkent, 1958 y, 316-b.
73. Navoiy A. «Xamsa». Toshkent, 1958 y, 203-b.
74. «Odob bo`stoni va axloq gulistoni». Toshkent, 1994 y, 40 b.
75. Poshshoxoja. «Miftohul - adl». Toshkent, 1968 y, 31-b.
76. Poshshoxoja. «Miftohul - adl». Toshkent, 1968 y, 57-b.
77. Pedagogika. R.Mavlonova, O.To`raeva, K.Xoliqberdievlar tahriri asosida «O`qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 2001 y.
78. Po`latova M. «Oila tarbiya o`chog`i». Toshkent Boshlang`ich ta'lim, 1993 y, № 3-4-son.
79. «Pedagogika tarixidan». Darslik. «O`qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1996 y.
80. Po`lat Mo`min. «Sahro sandig`idagi zabarjad». Toshkent, 2001 yil.
81. Rabg`uziy N. «Qissai Rabg`uziy». Toshkent, 1960 y, 81-b.

ILOVALAR

Tajriba-sinov ishlarini tahlil etishda boshlang`ich sinf o`quvchilarining imon-e'tiqod tushunchasini shakllantirishda sharq mutaffakirlari asarlaridan foydalanishni tajriba boshida va tajriba oxiridagi natijalarga asoslangan holda matematik-statistik metodi qo`llanildi. Tajriba sinovga ko`ra tajriba guruhida 50 nafar va nazorat guruhida 50 nafar o`quvchilar jalb etildi. Tajriba-sinov ishimiz quyidagi mezonlar asosida olib borildi.

Tajribadan oldingi mezonlar ko`rsatkichi

		Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
--	--	-----------------------	-----------------------

		O`quvchilar soni	Yuqori	O`rta	Past	O`quvchilar soni	Yuqori	O`rta	Past
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1.	O`quvchilarning Sharq mutafakkirlarining asarlarini o`rganishga ehtiyojlarining borligi	50	10	18	22	50	10	25	15
2.	O`quvchilarning Sharq mutafakkirlarining asarlari vositasida imon-e'tiqod tarbiyasi bo`yicha qisqacha ma'lumotlarga egaliklari	50	15	25	10	50	15	10	25
3.	O`quvchilarning Sharq mutafakkirlarining asarlari vositasida imon-e'tiqod tarbiyasini berish borasida ko`nikma, malakalarning shakllanganligi	50	20	15	10	50	15	20	15
4.	O`quvchilarning Sharq mutafakkirlarining asarlari vositasida imon-e'tiqod tarbiyasini berish bo`yicha ijodiy yondashuvning mavjudligi	50	20	15	15	50	10	15	25

Tajribadan keyingi mezonlar ko`rsatkichlari

№	Mezonlar	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
		O`quvchilar soni	Yuqori	O`rta	Past	O`quvchilar soni	Yuqori	O`rta	Past
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1.	O`quvchilarning Sharq mutafakkirlarining asarlarini o`rganishga ehtiyojlarining borligi	50	35	12	3	50	15	20	15
	O`quvchilarning Sharq	50	35	10	5	50	15	15	20

2.	mutafakkirlarining asarlari vositasida imon-e'tiqod tarbiyasi bo'yicha qisqacha ma'lumotlarga egaliklari								
3.	O'quvchilarning Sharq mutafakkirlarining asarlari vositasida imon-e'tiqod tarbiyasini berish borasida ko'nikma, malakalarning shakllanganligi	50	38	10	2	50	15	20	15
4.	O'quvchilarning Sharq mutafakkirlarining asarlari vositasida imon-e'tiqod tarbiyasini berish bo'yicha ijodiy yondoshuvning mavjudligi	50	40	6	4	50	10	25	15

Olingan natijalarning tajriba boshi va yakunidagi ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda aks etgan

	Sinflar	O'quvchilar soni	Javoblar soni		
			Yuqori	O'rta	Past
Tajribadan oldin	Tajriba	50	10	18	22
	Nazorat	50	10	25	15
Tajribadan keyin	Tajriba	50	35	12	3
	Nazorat	50	15	20	15

Bu ko'rsatkichlarni foizlarda hisoblash uchun quyidagi formuladan hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz. Har bir o'quvchining o'zlashtirish koeffitsienti foizlarda formula orqali topiladi. Bu erda $K = \frac{j}{Q} 100\%$; j – o'tkazilgan tajribada savollarga berilgan to'g'ri javoblar soni; Q - o'quvchilarning umumiy soni


Matematik-statistik tahlil natijalari

(koeffitsient bo'yicha)


№	Sinflar	Tajribadan oldin	Tajribadan oldin	Tajribadan keyin	Tajribadan keyin
---	---------	------------------	------------------	------------------	------------------

	Baho	Tajriba	Nazorat	Tajriba	Nazorat
1.	Yuqori	$K_1 = \frac{10}{50} \cdot 100\% = 20\%$	$K_1 = \frac{12}{50} \cdot 100\% = 24\%$	$K_1 = \frac{35}{50} \cdot 100\% = 70\%$	$K_1 = \frac{18}{50} \cdot 100\% = 36\%$
2.	O'rta	$K_1 = \frac{18}{50} \cdot 100\% = 36\%$	$K_1 = \frac{15}{50} \cdot 100\% = 30\%$	$K_1 = \frac{12}{50} \cdot 100\% = 24\%$	$K_1 = \frac{20}{50} \cdot 100\% = 40\%$
3.	Past	$K_1 = \frac{20}{50} \cdot 100\% = 40\%$	$K_1 = \frac{25}{50} \cdot 100\% = 50\%$	$K_1 = \frac{3}{50} \cdot 100\% = 6\%$	$K_1 = \frac{24}{50} \cdot 100\% = 28\%$


Tajribadan oldin nazorat ko`rsatkichlari




Tajribadan keyingi nazorat ko`rsatkichlari




Tajribadan oldin tajriba guruhining nazorat ko`rsatkichlari



Tajribadan oldin nazorat guruhining nazorat ko`rsatkichlari



Tajribadan keyin tajriba guruhining nazorat ko`rsatkichlari



Tajribadan keyin nazorat guruhining nazorat ko`rsatkichlari

